

O'ZBEKISTON

TALABASI

/2026.3 №3 /34/



O'zbek tili

qanday yuksaladi?

“xo‘rozoqand”

imiz

Chet elning va o'zimizning

3030-3656



anons

Chiqindilaringizni olib keting!

Endi tasavvur qilib ko'ring, "sizning hovlingizga kimdir kelib ovqat yeydi, dam oladi va keyin hamma chiqindisini o'sha yerda tashlab ketadi. Bu holat sizga yoqadimi?"

"Ko'nglim-a orzular solgan qishlog'im..."

Eh, qancha orzular shu yerda boshlangan, qanday insonlarni yetishtirib bergan-a bu qishloq. Shuning uchunmi, qishlog'imiz Xizr eli deb nomlanadi. Qandaydir sehrli kuchi borki, doim o'ziga tortaveradi, sog'intiraveradi.

Ochko'zlik "shou'si"

Taomlanish shoxobchasi oldida uzun navbat, odamlar nimanidir qiziqish bilan kuzatib turishibdi. Stol atrofida esa kimdir bir daqiqada besh hissa oshni yeyishga harakat qilmoqda. Oldida vaqt o'lchovchi soat, atrofdagilar esa hayajon bilan olqishlaydi. "Agar shuni yeb bitirsang, bepul!", – deydi tadbir tashkilotchisi.

Kolumbda bor alamim manim...

Ilmiy taxminlarga ko'ra, Amerika mahalliy xalqlarining ajdodlari taxminan 15000-20000 yillar muqaddam, so'nggi muzlik davrida, Bering bo'g'ozi ustida hosil bo'lgan tabiiy "ko'priq" orqali Osiyodan Amerikaga o'tishgan.

"Hayolga oshno bo'l. Xatodan qo'rqma"

Ahvolim unchalik yaxshimasdi. Yotoqxonada xonam bo'lmaganidan jo'ralarimning xonalarida polda yotib yurardim, yegulikka pul topish uchun kola shishalarini yig'ib, 5 sentdan topshirardim, jilla qursa, haftada bir marta to'yib ovqatlanish maqsadida yakshanba kunlari kechqurun shaharning u chetidan bu chetigacha yetti mil yo'l bosib, krishnaviylar ibodatxonasiga borardim.

Bosh axborot hamkorimiz

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

O'ZBEKISTON TALABASI

Ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy-uslubiy metodik jurnal

Bir yilda 10 son o'zbek, qisman ingliz va rus tillarida chop etiladi. 2022-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 1590-raqam bilan ro'yxatga olingan. Obuna indeksi: 1393. Adadi: 2000 nusxa. Jurnalda e'lon qilingan materiallardagi dalil va raqamlarga mualliflar javobgar. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin. Tahririyat manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani Novza ko'chasi 14-uy. "Invest Book" bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Uchtepa tumani Foziltepa ko'chasi 12-B uy, 31.03.2026-yilda chop etishga ruxsat berildi. Jurnal obunasi, sotuvi hamda reklama xizmati yuzasidan +99891 077 75 75 raqami orqali ma'lumot olishingiz mumkin. Maqolalar quyidagi manzil orqali qabul qilinadi: @uzb_talabasi

Jamoat kengashi

Isajon SULTON
Abduvali XOLIQOV
Alisher SHODMONOV
Kamoliddin O'RINBOYEV
Ravshan ERMATOV
Gulmira MUSAJONOVA
Olim TOSHOYEV
Jenisbek PIYAZOV
Dilorom KARIMOVA
Ayub SHAHOIDDINOV
Nodir JONUZOQ
Iqbol QO'SHSHAYEVA
Nazokat AZIM
Bahrom IRZAYEV

Muassis

"INTEGRATION CENTR
UMID" MCHJ

Direktor

Chorshanbi XOLMATOV

Bosh muharrir

Sirojiddin IBROHIM

Navbatchi muharrirlar:

Otash YASHIN
Aziz ABDUMALIK

Jurnal tahririyat
kompyuter markazida
terildi va sahifalandi


Sahifalovchi-dizayner

Rahmatjon YUNUSOV



Mundaraja

CHET ELNING VA O'ZIMIZNING "XO'ROZQAND"IMIZ	.. \ 02
O'ZBEK TILI QANDAY YUKSALADI?	.. \ 10
MUSAVVIR NIGOHIDAGI DUNYO	.. \ 14
KOLUMBDA BOR ALAMIM MANIM...	.. \ 18
DUNYONING MARTDAGI MEHMONLARI	.. \ 22
"QIYOMAT KUNI" OMBORI	.. \ 28
"KO'NGLIM-A ORZULAR SOLGAN QISHLOG'IM..."	.. \ 32
MUHAMMAD VA SAVDO	.. \ 35
"OSMONGA QADALGA NIGOH"	.. \ 40
"LAHZANI TUTIB QOL, YASHAB O'T LAHZANI..."	.. \ 42
STIV JOBS: "XAYOLGA OSHNO BO'L, XATODAN QO'RQMA"	.. \ 46
G'ILAY SICHQON	.. \ 52
DIMASH QUDAYBERGEN: JAHON SAHNASIDAGI HODISA	.. \ 56
"BOSHQALAR XOHLAYOTGAN NARSA..."	.. \ 60
OCHKO'ZLIK "SHOU"SI	.. \ 64
CHIQUINDILARINGIZNI OLIB KETING!	.. \ 70



CHET ELNING VA O‘ZIMIZNING

(Davomi. Boshi oldingi sonda.)

“XO‘ROZQAND”IMIZ

(FIQRALAR)

Chet elda yashab his qilgan, ammo nimaligini va qayerdan kelatyotganini anglolmagan tuyg‘ular aynan nimaligini vatanga borganda tushundim. Ular begonalik, yolg‘izlik hissi ekan.

23 yil chetda yashagan bo‘lsam jamiyatning huquqiy jihatdan teng bir a‘zosiga aylandim, ammo ijtimoiy, ruhiy, ma‘naviy ma‘noda teng a‘zosi bo‘lolmadim. Odamlar haligacha menga ajnabiydek qaraydi, o‘zinikidek qabul qilmaydi. Men ham o‘zimni haligacha begona his qilaman, huquqiy jihatdan hech qanday muammo yo‘q, lekin men ularga el bo‘lolmadim.

23 yil O‘zbekistonga bormadim, ammo odamlar meni hech qachon uzoqlashmagan, begonalashmagan, juda yaqin qadrdonidek, o‘zinikidek qabul qildi. O‘zimni aslo begona his qilmadim, barcha illatlari va nuqsonlari bilan menga yaqin tuyuldi. Hatto, o‘zim ham begonalashib ketmabman. Shunisiga hayron qoldim.





Shuni kuzatdimki, ko'pchilikda tinglash va boshqalardan mazmun olish qobiliyati shakllanmagan. Bir qarindoshnikiga bordim, kirganimda umumiy hol-ahvol so'radi, keyin gap boshlagani bo'yicha ikki soat tinmay o'zi gapirdi.

Qishloqdagi sinfdoshlar bilan o'tirdik, nima qilding, qayerlarda bo'lding, falon masalada fikring nima deb so'ragani yo'q, bir-biri bilan mol-qo'ylarni gaplashib o'tiribdi.

Odam qancha omi bo'lgani sari shunchalik tinglash qobiliyati sust bo'larkan. Keyin odam qarigan sari ham sergap bo'lib qolarkan.

O'qimishli, ziyoli odamlar boshqani tinglab foydalanishga haris bo'larkan. Tibbiy doktorlar davrasida bo'ldim, ular menga savollar berib diqqat bilan tingladi. Ataylab uzoq yo'lga hamroh bo'lib chiqishdi suhbatlashish uchun.

Olti nafar feysbukdosh bilan uchrashdim, hammasi yaxshi tinglovchilar va yaxshi suhbatdoshlar ekan. Qo'yingki, tinglash uchun, ma'noli savol berish uchun saviya kerak ekanda.

**Yuzingizga kulib,
orqangizdan
so'kaveradi**

* * *

O'zbekni bir zumda hushyor torttiruvchi, ruhiy stressga soluvchi, diqqatini jamlovchi, chuqur xo'rsinishga undovchi gaplar. Jiddiy salmoqli ohangda aytiladi:

- Mana, bolalaring katta bo'lyapti;
- Mana, bolalaring ham katta bo'lib qoldi;
- Mana, bolalaring ham uylab-joylaydigan bo'ldi;
- Hali bularni uylab-joylash kerak;
- Hademay qudali bo'lasan;

Shunday gaplarni muntazam eshitib turgan o'zbek yana-da qattiqroq harakat qiladi, tunlarini bedor o'tkazadi, bolalari katta bo'lgani sari halovatini yo'qotib tipirchilaydi, uylab qo'yishning o'zi yetarlimas, unga uy solib berish ham kerak, unga cha ko'ngli tinchimaydi. Ammo hozir qizi borlarga ancha yaxshi bo'libdi, shartlarni kuyov taraf emas, qiz taraf qo'yishiga guvoh bo'ldim. Kuyov tomon qiz tomonga yalinmoqda. Qiz tomon osonlikcha fotihani bekor qilmoqda.

* * *

O'zbekiston va Tojikistonni inqirozga uchratmay normal davlat sifatida saqlab kelayotgan omil odamlarning o'z yeriga bo'lgan muhabbati ekan deb o'ylayman. Chunki agar bulardagi ishsizlik boshqa davlatda bo'lganda va ulardagi imkoniyat boshqa xalqlarda bo'lganda, allaqachon yoppasiga oilaviy ko'chib ketib, qishloqlar va tumanlar huvillab qolgan bo'lardi.

Bu xalqlar o'z yerini qattiq sevgani uchun erkaklari oilasini qoldirib, ishlab pul jo'natib, bobosidan qolgan yerni obod qilib yashamoqda. O'sha chekka tumanlarda ham iqtisod o'sib, pul aylanmoqda. Haqiqatan global miqyosda ishlagan qoidalar bu ikki davlatlarda ishlamaydi.

Agar pokistonlik, hindistonlik yoki bangladeshlikda ham bemalol vizasiz Rossiyaga borib ishlash imkoniyati bo'lganda bola-chaqasi bilan ko'chib borgan, o'sha yerda qolib ketgan bo'lardi.

O'zbeklar esa 20 yil yashasa ham pasportini olmaydi, oilasini olib ketmaydi, kelajagini o'zi tug'ilib o'sgan qishlog'ida ko'radi.



* * *

Inglizlarda ajrashib ketgan juftliklar ham bir-biri haqida gapirganda: “Ammo, haliyam uni sevaman”, deydi. Qanaqasiga bir-biriga shuncha ozor bergandan keyin ham sevish mumkin deyman-u, bundoq o’ylasam mumkin ekan.

Sevgi oilaning saqlanishidagi masalliqlardan yoki ingrediyentlardan biri ekan xolos, ammo asosiysi emas. Bir-birini sevadiganlar bir-biriga toqat qilolmaydi. Juda ko’pini ko’rdim – alohida yashaydi, uchrashib turadi. Nega birga yashamaysizlar deb so’rasam, chunki bir-birimizga toqat qilolmaymiz deydi. Voyaga yetgan bolalar ham ota-onasidan alohida yashashga intiladi, ota-onasi ham tezroq chiqib ketishini istaydi, chunki toqat qilolmaydi.

O’zbeklarda toqat qilish kuchli. Yomon ko’radigan ishxonasida bir umr ishlaveradi, qaynonasini orqadan qarg’ab yashaveradi, yuzingizga kulib gapirib, ketishingiz bilan orqangizdan so’kaveradi, chunki bizda toqat qilinadi. Odamning yuziga yaxshi gapirib, ko’zdan yo’qolishi bilan orqasidan yomonlash va haqorat qilishni O’zbekistonda ko’p uchratganman.

Masalan, hamkasbiga, rahbariga, qaynonasiga, ovsiniga, qo’shnisiga va boshqa kontekstlarda uchratganman.

Institutda ham qo’shni xonadan yigitlar chiqib qolsa yuziga yaxshi gapirib, chiqib ketishi bilan mag’zava ag’darishlarni ko’rganman. O’zimda ham balki ko’p marta bo’lgandir. Chunki o’zbeklarda andisha, yuz-xotir kuchli edi, yuziga aytishga botinolmaydi, orqasidan zahrini sochadi.

O’zbeklar ana shunday g’aroyib xalq, biroq bu masalada koreyslar va yaponlar bizni changida qoldiradi.

* * *

O‘zbek xalqi urf-odatlar, ma’rakalar va marosimlar yuki ostida ezilib ketgan xalq edi, hozir sal yengilladi, shekilli.

Oilada kimdir vafot etishi bir musibat bo’lsa, uning tuproqqa qo’yilishi yillab davom etadigan moliyaviy sunamini boshlab berardi. Qabrga qo’yib qaytilgandan keyin darrov odamlarga katta qozonda osh qilinardi, ertangi osh uchun ham qo’y so’yilar, undan tashqari yuzlab odamlarga Xudoyi oshi berilardi.

Yetti, yigirma, qirq degan marosimlar qilinardi, qanchadir muddatdan keyin Qa’da degan marosim o’tkazilardi, unda ham ziyofat berilib xotinlarga lat-putta, idish-tovoq tarqatilardi. Ikki Hayitda ham qo’y so’yib osh berilardi. Fotihachi kuzatildi edi.

Mayyitning ayol yaqinlari bir yil ko’k kiyib motam tutardi, to’y va xursandchilikka qatnashmas edi. Agar to’y kelishib qo’yilgan bo’lsa, vafot munosabati bilan to’xtatildi va kamida bir necha oyga surildi edi.

**Afsuski, osoniga
emas, qiyiniga
yuradigan xalqmiz**



Oizlar o'zining hayotini to'g'ri qurib olsa bo'ldi

Shuning uchun qish o'ldirma yoz o'ldir, och o'ldirma to'q o'ldir, derdi qariyalar. To'yni yig'inib o'zing istagan vaqtda qilasan, ammo o'lim kutilmagan paytda keladi, deb o'limning o'zidan emas, uning marosimlaridan qo'rqardi odamlar.

Qariyalar hayotini sarhisob qilganda qancha to'y qilgani va qancha o'lik ko'mib ma'rakalarini o'tkazganini hisoblardi. Chunki o'lik ko'mish to'y qilishdan ham qimmatroqqa tushardi. Aslida Islomda nikoh qilish qanchalik oson bo'lsa, mayyitni tuproqqa qo'yish ham juda sodda, boshqa dinlardagi kabi qiyin va murakkab emas. Islomda hamma narsa oson qilib qo'yilgan. Ammo johiliyat sababli o'zimizga o'zimiz qiyin qilib bid'at va xuroftolarni to'qib tashlagan edik. Hozir qanday bilmadim, ammo 20 yilcha oldin ham shunday edi.

Shu kunlarda bo'layotgan sunnat to'ylari haqida eshitib hayron qoldim, naqadar isrofga botgan, namuncha o'zini qiynaydigan xalqmiz deb o'ylab qoldim. Islomga amal qilib yashasak, qiynalmay rohatlanib yashardik, afsuski, osoniga emas, qiyiniga yuradigan xalqmiz, qulaylik va ruxsatlardan foydalanmaymiz.

* * *

Ayol kishi, ayniqsa, hali 20 ga kirmagan qizlar qutqaruvchi roliga tushib qolib o'zini o'tdan cho'qqa urishi, har xil balolarga o'zini duchor qilishi, ukalarini o'qitib, uylab-joylab, ota-onasiga uy qurib berib, moshina olib berishni o'ziga burch qilib olishi naqadar achinarli.



“Subyektiv”ning bir sonida otasi tengi koreysga aynan shunday niyatlarda tegib, u yoqqa borib afsus qilgan ayollarning hikoyalarini eshitib, qandaydir achinolmadim. Boshidanoq niyati noto'g'ri bo'lgan, maqsadi noto'g'ri. Men oila qurib, bolali bo'lib yashashni istagandim, deydi timsoh ko'z yoshlarini performativ namoyishkorona to'kib.

Qizlar miyasiga quyib olishi kerak. Ular ota-onasiga pul olib kelishga majbur emas, ularni qashshoqlik girdobidan qutqarishga majbur emas, ukalarini o'qitib, uylab-joylashga majbur emas. O'zining hayotini to'g'ri asosda qurib olib ketsa bo'ldi, shuning o'zi ota-onasiga va oilasiga qilgan katta yordam bo'ladi.

* * *

Moliyaviy erkin bo'lishga harakat qilganingiz sari yo'qotadigan narsangiz ham ko'payaveradi. Erkin bo'lish uchun yo'qotishdan qo'rqmaslik kerak. Bu dunyoda mutloq erkinlik yo'q, baribir kimgadir qaram bo'lib qolaverasiz. Ana shu jismoniy erkinligini ham yo'qotishdan qo'rqmaganlar, faqat fikr, ong va qalb erkinligi sari intilganlar haqiqiy erkin bo'lolsa kerak. Buning uchun Allohga tavakkulni kuchaytirish kerak.

Insonda iymon kuchaygani sari u erkin bo'lib boraveradi. Allohning qadariga taslim bo'lgan, qismatiga rozi bo'lganlar, hamma narsa faqat Uning izni bilan bo'lishiga chin iymon keltirganlar haqiqiy erkin bo'ladi. Bo'lmasa, tirikchilikdan mutlaqo g'amingiz bo'lmasa ham, qo'rg'on ichida yashasangiz ham zavotir olaverasiz.

Menimcha hozir dunyodagi eng ruhiy erkin kishilar G'azodagilar bo'lsa kerak, yo'qotadigan hech narsasi qolmagan, biz qayg'uradigan tashvishlarga ularning pinagi buzilmaydi. Ular musibatning eng oxirgi chegarasida yashamoqda. Alloh ularga najot bersin. Bizga ham mustahkam iymon, bukilmis iroda bersin.

Dunyo qanday ishlashini tushunish zavq beradi

* * *

Menda negadir yaxshi odamlarga achinish ular o'lganidan keyin emas, ular tirikligida, soppa-sog' yurganda kuchliroq bo'ladi. Masalan, biror yaxshi odamni tanisam, u bilan gaplashayotganda yoki uning yozganini o'qiyotganimda yoki uning onlayn suhbatini tinglayotganimda, beixtiyor xayolimdan o'tadi, uning iyagidan latta bilan bog'langan jonsiz yuzidagi yumuq ko'zlarini ko'z oldimga keltiraman, shunday yaxshi inson ham bir kuni o'tib ketadi-a, afsuski bularni yetarli qadrlamayapmiz, eng avvalo, bolalari va xotini qadrlamaydi, ammo o'lganidan keyin unga marsiyalar aytiladi, maqtovlar aytiladi, deymen. Hayot shunday ekan-da, o'lganingdan keyin qadr toparkansan. Ammo qadrlanish uchun o'lish shartmi deb achinaman.

Do'stlar bilan kulishib gaplashib o'tirganimizda ham shunday xayol-lar o'tadi va bu lahzalar naqadar qadrli ekanini anglayman.

Ha, umr juda qisqa, bir pasda o'tib ketadi.

* * *

Hayot, inson va dunyoni anglashga bo'lgan ehtiyojim turli sohalardagi mutaxassislarni tinglashga undaydi. Dunyoga faqat diniy yoki dunyoviy prizmadan emas, turli nuqtai nazarlardan qarab yaxlit bir tasavvur hosil qilishni istayman. Dunyoga faqat o'zbekcha nazar emas, boshqa xalqlarning ham nigohi bilan boqishni xohlayman.



Odamlar "Million" yoki "Dizayn"ni miriqib ko'rganidek, yoxud serial va konsertlarni berilib tomosha qilganidek men chuqur muhokamalarni tinglashga qiziqaman, mohiyatni anglash, dunyo qanday ishlashini tushunish menga zavq beradi, tinglab to'ymayman.

Bundan nima foyda desangiz, qo'lga ilinadigan biror moddiy foydani ko'rsata olmayman. Ammo AQShdek davlatning senatorlari va kongresmenlari ham naqadar johil va sayoz ekanini anglash darajasiga chiqyapman. Birov shunday degani uchun emas, o'zim ularni tinglab saviyasini bilish natijasida shunday xulosaga kelyapman.



**Onam kelinidan
rashk qilib,
qo'limdan mahkam
ushlab yotardi**

* * *

Bu dunyoda odamdek, ayniqsa, musulmondek yashab o'tishingiz uchun o'zingizni fido qilishingiz, o'zingiz uchun yashamasligingiz shart. Chunki o'zi uchun yashash boshqa mas'uliyatlardan voz kechishni, shaxsiy manfaatingizga zid kelganda, o'z manfaatingizni ustun qo'yishni anglatadi.

Oila qurdingizmi bo'ldi, oila manfaatini shaxsiy manfaatingizdan ustun qo'yasiz. Ota-onangiz bormi, qariganda ularga qarashni hatto ishingizdan, yoqtirgan joyingizda yashashdan ustun qo'yasiz. Hozir qilib turgan ishingiz va yashayotgan joyingiz sizga har qancha mahjub bo'lmasin va har qancha shar'an joiz bo'lmasin, ota-onangizga farzandlik burchini bajarish, oilangiz bilan birga bo'lish baribir ustun kelaveradi.

Musulmon shaxs bitta o'zini o'ylab qaror qilmaydi. U oilasi uchun o'z manfaatidan kechadi, chunki hayot shuni taqozo etadi, vijdoni yo'l qo'ymaydi.

Haqiqiy erkak bo'l, uylanma, undan ko'ra ko'proq pul top, o'zingga sarfla, sport zalga bor, sayohat qil, degan tavsiyalarga og'ishmay amal qilsangiz oxirida xorlikka yuz tutasiz. Chunki bu dunyoda va narigi dunyoda qadr topish mas'uliyatni zimmaga olishga, o'zini fido qilishga bog'lab qo'yilgan, usiz iloji yo'q.

Bu tavsiyalar asosiy maqsad bo'lolmaydi, yo'l-yo'lakay bajariladigan yondosh yoki ikkilamchi uchlamchi vositalar bo'lishi mumkin.

* * *

Chet elda nufuzli kasbda ishlaydigan o'qimishli bir tanishim aytmoqda:

— Uylanganimda onam anchagacha meni kelinidan rashk qilardi, hatto xotinim bilan yotmay, onam bilan yotardim. Bitta xonada emas, bitta o'rinda yotishim kerak edi, onam qo'limdan mahkam ushlab yotardi, uxlab qolganda sekin bildirmay sirg'alib chiqib ketmasligim uchun.

Men buni eshitib quloqlarimga ishonmay, chindan ham tushimda emas, voqelikda eshitayotganimni tasdiqlash uchun o'zimni chimchilab qo'yayapman va qayta-qayta rostanmi, mubolag'a qilmayapsizmi, deb so'rayapman, u esa "ha, rostan, istasangiz qasam ichaman" deyapti. U rostgo'y inson, biror marta yolg'on gapirganiga guvoh bo'lmaganman.



* * *

Aylol bir erkakdan bola ko'rishga rozi bo'lishi uchun uni sevishini qo'yib turing, undan ham muhimrog'i, avvalo, unga ishongan bo'lishi kerak. Kelajagini shu inson bilan bog'lashga ishongan bo'ladi. Ammo orada u bo'ladi-bu bo'ladi, oxir-oqibat ishonch darz ketadi. Natijada ayol keyinchalik ishonchsizlikka aylangan ishonchning mevalari bilan qolib ketadi. Qahrga aylangan mehr va nafratga aylangan muhabbatning natijasi bilan umrbod yashaydi.

Bola ko'rish ortga qaytarib bo'lmas hodisa. Yoqmasa yoki vaziyat o'zgarsa, do'konga qaytarib beriladigan yoki sotib qutuladigan buyum emas. Ona bo'lish umrbod hayotini o'zgartiradi va u endi oldingi inson emas. Ammo erkakka baribir, u 100 ta tug'dirsa ham unga jin urmaydi.

Hayron qolaman, ba'zi erkaklar o'zining bolasini bemalol unutilib yuboraveradi, o'ziga qolsa umrbod ko'rmasa va ta'minlamasa. Boshqa oila qurdimi – bo'ldi, oldingisi faqat ortiqcha tashvish.

Xullas, aylanib ham o'rgilib ham o'sha tug'ilib qolgan bolalar chekadi jabrini. Ammo na iloj, ota-onalarining qaroridan kelib chiqqan natijalarni yashab o'tishga majbur.

**Bola yoqmasa
do'konga qaytarib
beriladigan
buyum emas**

* * *

Badavlat holida o'z qizlariga marhamat ko'rsatmaydigan, ammo o'g'illarini taltaytiradiganlarni tushunmayman. Bir pokistonlik cholni bilaman, Angliyaga 60 yilcha oldin kelgan, sekin-asta bizneslarini yo'lga qo'yib boyib ketgan, ammo haligacha kambag'aldek yashaydi. 2 o'g'il 4 qizi bor, o'g'illari rosa pulini sovuradi ammo qizlariga hech narsa qilmaydi. Ipotekaga uy olayotganda depozit uchun yordam bergandir, ammo qizlari qattiq ishlaydi, 30 yillik ipotekani to'lash uchun ter to'kadi.

O'g'illari eng so'nggi "Mercedes" va "Audi"larni mingan holida, qizlari eski "Toyota"da yuradi. Chol xayriya uchun Pokistonga bir martada 30.000 dollarlab pul jo'natadi. U yerda qasr uylari, gektarlab yerlari bor. Ammo negadir qizlariga himmat qilmaydi. Qizlari miskin bo'lib yashaydi, uchma-uch kun ko'radi. Biri o'qituvchilik qilib, biri qariyalarga qarab kun ko'radi.

Cholning puli bitib yotibdi, qizlarining ipotekadan qolgan qarzini to'lab bersa ham bo'laveradi, ammo xayoliga ham keltirmaydi, hayronman nega unday. Qizlari ham og'iz ochmaydi, bu haqida gapirishga jur'at qilmaydi.

Chol 86 yoshda, hozirdan meros talashish boshlangan, o'g'illari imkon qadar ko'proq egalash harakatida. Shuncha boylik to'plab, undan na o'zi, na qizlari foydalanmasligi achinarli.

* * *

Hamma mendek bo'lsa iqtisod kasod bo'ladi, bizneslar sinib ketadi, chunki menga uncha-muncha marketing ta'sir qilmaydi, iste'molchi emasman, shaxsan o'zim uchun yilda bir marta libos olsam olaman, bo'lmasa yo'q, telefonni kamida 3 yil tutaman, mashinaga ham qiziqish yo'q.

Jiddada havo issiq va changligi uchun tashqarida yurish noqulay, Mall – savdo markazlariga yurishga boramiz, yaqinimizda ikkita Mall bor, Salam Mall, Andalus Mall, do'konlarga kirmayman, qiyo boqmayman, ular jamiki nafis mollari bilan meni o'ziga rom etolmaydi. Odatda rafiqam bilan boraman, bir kuni o'g'lim ham birga borgandi, o'g'lim aytmogda:

– Dada, bu yer nafsni tarbiyalashga ko'r joyda, qarang bu narsalarni ko'rib olgingiz kelib ketadi.

Men:

– Qanday nafsligiga va kimning nafsiligiga bog'liq, menda zarracha qiziqish yo'q, nimadir kerak bo'lsa o'shani olaman, boshqa narsaga chalg'imagayman, shu yerga necha marta kelib yurgan bo'lsam, suvdan boshqa narsa olmay chiqib ketgan paytim ko'p bo'lgan.



* * *

Til bilsangiz, hujjatingiz va daromadingiz bo'lsa, dunyoning ko'p davlatlarida yashab ketaverasiz. Ammo bu yashash sayoz yashash bo'ladi. Tomir otmagan, palak yozmagan, jamiyatdan ihotalanagan, faqat o'z qobig'ingizga o'ralgan yashash bo'ladi. Ayniqsa, Yevropa va AQShda hatto rus oligarxi bo'lsangiz ham ijtimoiy maqom olishingiz qiyin. Mahalliy maktab boshqaruv kengashi a'zosi yoki tuman arxitektura bo'limining xodimi sizdan ko'proq hurmatga ega bo'ladi. Chunki iqtisodiy kapital bilan ijtimoiy kapitalni sotib ololmaysiz. Shu haqida iqtisodchi Behzod Hoshimov ajoyib fikrlarini va kuzatishlarini aytgan edi.

Inson bir joyga o'rnashib ijtimoiy munosabatlar o'rnatishi uchun vaqt ketadi. Uy sotib olish, bank hisobi ochish, bolalarni maktabga joylash, oilaviy doktorga ro'yxatdan o'tish kabilar minimum boshlang'ich qadamlar xolos, bu ijtimoiy munosabatlarni ta'minlamaydi. Ijtimoiy munosabat va maqomingiz yo'q joyda tez zerikasiz, ma'nosizlik qiynaydi. Shuning uchun qarindosh-urug'lari bilan chet elga ketganlar oson moslashadi, chunki eski munosabatlarni davom ettiradi. Yolg'iz o'zi yoshlikda ketgan yoki chet elga borib, keyin uy lanib oilasini olib kelganlar 20 yildan keyin

ham arosat kayfiyatida yashaydi, hayot qayerda qulay bo'lsa o'sha yerga ko'chib ketishga tayyor, chunki yo'qotadigan narsasi yo'q, tomir otmagan, palak yozmagan.

Fayzuddin MO'MIN

Hamma mendek bo'lsa, iqtisod kasod bo'ladi



Men rus tili juda muhim bo'lgan Sovet davrida tug'ilganman. Bir vaqtning o'zida o'zbek tili hayotimning ajralmas bir qismi bo'lib kelgan, chunki

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishning asosan salbiy tajribalariga tayanib, hozirgi O'zbekiston sharoitida dekolonizatsiya emas, balki ijtimoiy adolat, ya'ni o'zbek tilini rasmiy ta'lim tizimida inklyuziv (keng qamrovli) o'rgatish shart.


O'zbek tilining ikkinchi til sifatida o'rganilishi holati va dekolonizatsiyasi bilan bog'liq o'z hikoyamni taqdim etmoqchiman. Buning uchun, birinchi navbatda, bolalik, ijtimoiy muhit va maktabdagi tajribamga tayanaman. Ikkinchidan, o'zbek tilini o'rganishga qaratilgan harakatlarim va u bilan bog'liq (de)kolonial tuyg'ular haqida hikoya qilaman. Men Zembylasning nazariyasiga tayanib dekolonizatsiyaning qaysi bosqichida ekanligim haqida fikrlar bilan bo'lishmoqchiman.

tug'ilganimdan beri O'zbekistonda yashab kelmoqdaman va millatim o'zbek. Qarindoshlarimning deyarli barchasi o'zbekcha so'zlashgan yoki so'zlashadi. Shu bilan birga, o'zbek tilining bolaligimdagi roli katta bo'lmagan, chunki hamma, shu jumladan ota-onam men va ukalarim bilan ko'proq ruscha gaplashgan va shu tariqa rus tili bizning birinchi tilimizga aylandi. Ilgari, rus tilining ahamiyatini anglab, buvim faqat o'zbekcha so'zlashuvchi farzandini, ya'ni otamni rus maktabiga berdi va otam u yerda rus tilini juda qiynalib o'rgandi. Biroq, keyinchalik otam bu qaror uchun minnatdor bo'lgan, chunki rus tili, albatta, unga ko'p eshiklarni ochib berdi va ilm-fan sohasida yaxshi karyera qilishiga imkon yaratdi. Men tug'ilganimda, otam mening rus tili bilan qiyinchiliklarga duch kelishimni xohlamadi, shuning uchun u oilamizning asosiy tili sifatida rus tilini tanladi. Yillar o'tib, men o'zbek tilini yaxshi o'rgandim, lekin biz hanuzgacha uyda ko'proq ruscha gaplashishda davom etib, shu bilan epistemik qarshilik, ya'ni "mustamlakachi-

O'zbek tili

qanday
yuksaladi?

TOP
1000





menga katta yordam berdi. Albatta, mustaqil ravishda ko'p shug'ullanganman. O'zbekligimdan kelib chiqib, o'zbek tilida ko'p o'qdim va yozdim. O'zbek tili va O'zbekiston tarixiga qiziqib qoldim. O'zbek-rus tarixining ba'zi sahifalari, masalan, Rossiya bosqini, Sovet qatag'onlari, Orol dengizining qurib ketgani va hatto yaqinda chiqqan rossiyalik siyosatchilardan birining O'zbekistonni Rossiyaga qo'shish haqidagi shovinistik taklifi meni juda xafa qildi. Shunga qaramay, ular meni Rossiyaga mutlaqo qarshi qilib qo'ymadi.

O'zbek tilini o'rganganim meni xalqimga yana-da yaqinlashtirdi, lekin o'zbekcha bilishim ruscha bilishimdan hech qachon kuchliroq bo'lmasligini tez angladim. Bu meni bir muncha vaqt bezovta qildi, ammo yillar davomida men shu postkolonial holatga ko'nikib qoldim. Birinchidan, mening o'zbekcha bilishim qanchalik yaxshi bo'lishiga qaramay, xalqim meni

lik matritsasidan uzilish" yo'qligini ko'rsatmoqdamiz. O'zbek tili fani mening dars jadvalimda 4-sinfda paydo bo'ldi. O'shanda O'zbekiston allaqachon mustaqillikka erishdi. Shu fanga ilk darsdanoq muhabbatim uyg'ondi va bu ko'p yillik muvaffaqiyatlarimga sabab bo'ldi. Buning uchun men maktabimdagi va universitetimdagi o'zbek tili o'qituvchilaridan juda minnatdorman. O'zbek tilini rasmiy ravishda o'rganganimni iliq xotiralar bilan eslayman, chunki men har doim o'rganish va ijod qilishga ruhlantirilganman. Umuman olganda, mening atrofim ham til o'rganishimga yordam berdi. Men uchun hech narsa tarjima qilmagan otamdan minnatdorman, u har doim: "Lug'at javonda, ol-da kerakli narsangni top", derdi. Bu mening o'zbek tili ko'nikmalarimni yaxshilashga juda foydali bo'ldi. Boshqa o'zbekzabon odamlardan ham minnatdorman, chunki ular menga vaziyatga mos so'z tanlashga yordam berib, xatolarimni ko'rsatganlar.


1993-yilda oilamiz asosan rus tilida so'zlashuvchi Toshkent markazidan Toshkentning chetidagi o'zbek mahallasiga ko'chib o'tdi, u yerda ukalarim va men o'zbekcha bilmasligimiz sababli iliq kutib olinmadik. Meni "o'ris", "oq quloq", "sariq" deb atashlarini va hatto o'zbekcha yomon bilganligim va o'zbekka o'xshamasligim uchun menga tosh otganlarini eslayman. Tarixan mustamlakachilik ko'pincha oq irq vakillarining istilolari bilan bog'liq bo'lgan. Ularning oqligi ularga ustunlik, imtiyoz berdi. Bugungi kunda oqlik va oq ustunlik tushunchalari faqat irqqa bog'liq bo'lmasdan, kengroq ma'noda, ya'ni sobiq imperiya madaniyatini, tilini, mafkurasini va boshqa tomonlarini yaxshiroq bilgan va afzal ko'rgan mahalliy xalq vakillariga nisbatan ham ishlatilmoqda. Dekolonizatsiya nishoni aynan shu oqlik va oq ustunlik bo'ladi. Ammo shuni aytish joizki, oqlik har doim ham ustunlik va imtiyoz beravermaydi. U ko'pincha millatchilikka olib kelib, stereotipik tafakkurni rag'batlantiradi. Bularning barchasi achinarli, yoqimsiz va ehtimol meni "haqiqiy" o'zbekka o'xshamasligimdan pushaymon qilish orqali uyaltirishga qaratilgan edi, lekin men uyalmadim. Boshqalardan farqli o'laroq, odamlar mening haqimda nima deyishlarini bilish va kerak bo'lganda o'zbekcha javob berishga harakat qildim. Men hammaga o'zbek tilini o'rgana olishimni isbotlamoqchi edim. Maktabda o'zbek tilini o'rganish



hech qachon o'z o'g'li sifatida qabul qilmagan. Men o'zbekka o'xshamaydigan odam sifatida o'zbekcha gaplashganimda hanuzgacha hayron yuzlarni ko'raman. Odatda, Toshkentdagi taksi haydovchilari men bilan gaplashayotganda rus tiliga o'tishning hojati yo'qligi to'g'risida yetarli dalillarga ega bo'lishlari uchun taxminan 10-15 daqiqa vaqt ketqizishadi. Bularning barchasi Lee nuqtayi nazarini aks ettiradi, ya'ni dekolonizatsiya ko'pincha millatchilikka olib kelib, stereotipik tafakkurni rag'batlantiradi. Ikkinchidan, men o'zbek tilini rus tili orqali o'rgandim va shu ma'noda rus tili o'zbek tilini o'rganishimga to'sqinlik qilmadi. Bundan tashqari, ko'p o'zbekzabon odamlarning savodsiz yozishlari, ularning o'zbek tili grammatikasi va adabiyotini yomon bilishlariga tez-tez duch kelganimda, men

o'zbek maktabida o'qimaganimdan afsuslanmasam ham bo'ladi, deya xulosa qilaman. Zembylas buni "imtiyozlilar nuqtai nazaridan" noqulay ustunlik hissi deb ataydi, ammo bu imtiyozning kelib chiqishi ajoyib, chunki aynan rus mustamlakachilik merosi paradoksal ravishda ajdodlarimning tilini o'rganishimga yordam berdi. Bundan tashqari, rus tili muhitida o'sganim meni o'zbek tili haqida fikrlash qobiliyatidan mahrum qilmadi. Masalan, maktabda o'qiganimda o'zbek tilini o'rganishni istamagan rus millatiga mansub tengdoshlarimni ko'rdim. Biroq, o'sha paytda men ularni tanqid qila olmasdim, chunki ular mendan farqli o'laroq ota-bobolarining tilini yaxshi bilar edilar. Va, albatta, o'sha paytda men bu masalalarni mustamlakachilik bilan bog'lay olmasdim. Shu bilan birga, men Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olgani va shuning uchun ham rus tili o'zbek tilining rivojlanishiga, amaldagi maqomiga va ishlatilishiga ta'sir ko'rsatganligi haqidagi tarixiy haqiqatni hech qachon inkor etmaganman. Shunchaki bu ta'sir faqat salbiy bo'lma-gan. Masalan, yaqinda Indiana universiteti mutaxassislari barcha o'zbek grammatik materiallarini darajalarga ajratishga harakat qilishayotganidan xabar topdim. Ular o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda bilish darajalari aniq belgilanmaganini aytishgan. Biroq, ushbu so'nggi ishlanmani Sovet o'zbek tili darsliklarida grammatik material berish ketma-ketligi





bilan sinchkov tarzda taqqoslash mustamlakachilik davrida ham shunga juda o'xshash tamoyil mavjud edi degan xulosaga kelishga imkon beradi. Shunday qilib, hech bo'lmaganda grammatika nuqtai nazaridan, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishning imperiya yondashuvi zamonaviylikdan holi bo'lmagan. Shuning uchun ham til mustamlakachiligi bilan bog'liq adolatsizliklarning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan qoloqlik tamg'asini o'zbek tiliga taqash maqsad qilinmagan.

Zembylasning nazariyasiga ko'ra men o'zbek tilining dekolonizatsiyasi jihatidan qanday bosqichda ekanligim haqida mulohaza yuritib, shuni aytishim mumkinki, men barcha bosqichlarning talablariga qisman javob beraman. Men imtiyozli pozitsiyada bo'lsam ham, noqulay ustunlikni his qilyapman. Men faqat o'zbekcha biladigan, zamonaviy ma'lumotga ega bo'lish va yaxshi maoshli ish topishda qiynalayotgan yoki




o'z shevasida keng davrada gapirishdan uyalayotgan o'zbeklarning dardlarini tushunib, birdamlik his qilaman. Shuningdek, men rus tili ta'lim uchun afzal til tanlovi bo'lib qolayotganida yoki O'zbekistonda o'zbek kirill alifbosidan hali-hanuz foydalanishda yashirin mustamlakalilik mantig'ini ko'rmoqdaman. Biroq O'zbekistonda o'zbek tilini o'rganish yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, ko'p odamlar o'zbek tilini o'rganishda qiynalsa, mustamlakachilikka qarshi kurash haqida gapirish juda ham qiyin. Bundan tashqari, uyat/sharmandalik sifatida namoyon bo'layotgan noqulay ustunlik hissini yo'qotish mexanizmi bizda mavjud emas.

Men keskin qarama-qarshilikka qarshiman va jamiyatda tinch munozaralar o'tkazishni istayman. Tabiiyki, bunday munozaralar bir tilda bo'lishi afzalroq, ammo buning uchun o'zbek tilini o'qitish va o'rganishni yaxshi yo'lga qo'yish hozirgi o'zbek kontekstida dekolonizatsiyadan ustuvor bo'lishi kerakka o'xshaydi. Shuni aytib, men o'zbek tilini dekolonizatsiya qilishning ahamiyatini kamaytirmayapman, lekin O'zbekistonda har bir kishi o'zbek tilini o'rganishi uchun yaxshi sharoitlarga ega bo'lganidan keyin dekolonizatsiya sodir bo'lishi ehtimoli ko'proq deb o'ylayman. O'zbek tilini o'rganish uchun resurslarning yetishmasligi kabi ba'zi muammolarni yechish ham adolatsizlik, ham dekolonizatsiya masalalarini hal qilishini hisobga olsak, bu yo'l yanada to'g'riroq ko'rinadi.

Komil TILLABOYEV,
Ta'lim va ijtimoiy adolat bo'yicha falsafa
doktori (PhD)





MUSAVVIR NINGOHIDAGI DUNIYO




Rassom yetti rangdan foydalanadi, sakkizinchisining nomi esa muhabbatdir, degan hikmat bor. Yosh rassom Yangiljon olamni ana shunday musavvirona muhabbat bilan ko'radi va ranglar jilosida aks ettiradi. U yangi zamon ruhini his etadi va ayrim tasviriy asarlarida moziy bilan bugungi kunni uyg'unlashtiradi. Mulohaza o'rnida shuni aytish kerakki, Yangi O'zbekistonning ijtimoiy hayotida yangicha dunyoqarashning shakllanishida avvalo, ilm-fan, san'at, texnologiya rivoji uchun yaratilayotgan imkoniyatlar muhim o'rin tutmoqda. Bu borada O'zbekistonda amaliy san'atga, tasviriy san'atga va badiiy ta'limga qaratilayotgan imkoniyatlar keng yaratilgani bois shu sohalarida ulkan o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda.

**Muvaffaqiyat
tinimsiz
mehnatda**




Shunday imkoniyatlardan unumli foydalanib kelayotgan yosh ijodkorlarimizdan biri Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti San'atshunoslik va dizayn fakulteti San'at asarlari va me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash yo'nalishi 1-bosqich magistranti Yangiljon Saburova..





Yosh naqqosh tasviriy va amaliy san'at bo'yicha respublika va xalqaro tanlovlarda faol ishtirok etib, diplom, kubok va medallarga sazovor bo'lgan. Yoshligidan O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professori Ortiqali Qozovqovdan tasviriy san'at sir-asrorlarini o'rganib kelmoqda, ranglar olamiga ilk qadamlarini aynan shu ustoz yo'l boshchiligida qo'ygan. Shu jumladan, Yangiljon Moskva shahrida bo'lib o'tgan "Radost Planet" festivali va "Art Victory" tanlovida, Norvegiyaning Oslo shahrida "The Best Student", Qozog'iston Respublikasida "Dream Fest" tanlovda, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining "Xalqaro tasviriy va amaliy san'at" festivalida "Eng yaxshi ijodkor talaba", "Milliy san'atimiz jonkuyari nominatsiyalarini, "Grand Pri" unvonlarini, kubok va medallarni qo'lga kiritdi. U O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining "Mahalla", "Madaniyat va ma'rifat" va "O'zbekiston" telekanallarida bir necha bor jonli efirda ishtirok etgan. Shuningdek, ijodkorning 3

marta "Ushalayotgan orzularim", "Mustaqillik mening nigohimda" hamda "Ranglarda yurt jamoli" nomli bir-birini takrorlamaydigan shaxsiy ko'rgazmalari bo'lib o'tdi. Hali yosh bo'lishiga qaramay, bir qator ko'rgazmalarga mualliflik qilib, xalqaro tanlov va festivallarda faol ishtirok etayotgan Yangiljon yoshlarimizga ibrat namunasidir. Shuningdek, hozirda ijodkor diplom dissertatsiyasi ustida ilmiy rahbari, ustoz — arxitektura fanlari nomzodi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professori Zuhra Dosmetova rahbarligida izlanishlar




olib bormoqda. Uning maqolalari Journal of Science and Technology va Scholar ilmiy jurnallarida chop etilgan.

Uning asarlari insonni soatlab tomosha qilishga majbur qiladi. “Buxoro, Jome masjid mehrobi”, “Shahrisabz, Oq saroy” mayolikasi, “Qashqadaryo, Langar ota masjidi bezagi” loyihasi, “Xattotlik”. “Xiva Ko’hna Ark” naqshi, “Samarqand, Ulug’bek madrasasi”, “Natyurmort” keramika, “Anorlar” keramika, “Zamonaviy naqsh”, “Buxoro, devoriy bezak”, “Zangi ota masjidi” mayolika loyiha kabi ishlarida milliyligimiz, asrlar oshib kelgan an’analarimiz aks etgan.

Ijodkorning fikricha, muvaffaqiyatning asosiy siri tinimsiz mehnat va o’z ustida ishlashdir.



Uning asari — ranglar orqali aytilgan hikoya



Har bir yangi asar yangi tajriba va yangi qadamdir. Shu sababli u doimo izlanishda, o’rganishda va o’z mahoratini oshirishda davom etmoqda. Yangiljonning orzulari katta. U kelajakda o’z san’ati orqali milliy merosimizni dunyoga tanitishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, yosh rassomlarga ilhom berib, ularni ham ijod sari yetaklashni istaydi. Yangiljonning ijodiy izlanishlarida an’anaviy san’at bilan zamonaviy yondashuvlar uyg’unlashgani yaqqol seziladi. Bu esa uning asarlarini nafaqat estetik jihatdan jozibador, balki mazmunan ham boy qiladi.

Yangiljon Saburova bugungi kunda o’z ijodi, izlanishlari va san’atga bo’lgan cheksiz muhabbati bilan yosh rassomlar orasida o’ziga xos o’rin egallab bormoqda. Uning har bir asari ranglar orqali aytilgan hikoya, qalbdan chiqqan tuyg’ular ifodasi va musavvir nigohidagi betakror dunyoning yorqin aksidir.

Yosh ijodkor, o’z oldiga aniq maqsad qo’ygan, iqtidorli va intiluvchan yosh rassom Yangiljon Saburovaga omad tilaymiz.

Gulzebo IBROHIMOVA
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

KOLUMBDA BOR ALAMIIM MIANIIM...




uyqusini qochiradi. Tongga yaqin atrof yorishib, bir olovrang qush – Bulbuligo'yo uchib keladi. Uning ham patlari yoqut va zumradlardek tovlanardi. U daraxt shohidan bitta bargni yulib, uchib ketadi. Kenja shahzoda qushga o'q uzadi. Qushning qanotidan bitta pat uzilib tushadi. Shahzoda bu haqda otasiga aytadi.... Xullas, ertakning davomida uch aka-uka shahzodalar o'sha qushni izlab yo'lga tushishadi. Ammo Bulbuligo'yoni, unga qo'shib, uchar tulpor va go'zal malikani qo'lga kiritish faqat kenja shahzodaga nasib etadi. Akalari unga hasad qilib, yarim yo'lda uni o'ldirmoqchi bo'ladilar. Baxtli tasodif sabab shahzoda eson-omon otasining yoniga keladi.

Bolaligimida buvimdan bir ertak eshitgandim. Aslida u "O'zbek xalq ertaklari" nomi ostida chiqqan bir qancha to'plamlardan ham o'rin olgan. Balki undagi voqealar sizga ham tanishdir?

Bir podshohning uch o'g'li bo'ladi. Uning bog'ida barglari zumraddan, mevalari yoqutdan, tanasi oltindan yasalgan daraxt bo'lib, podshoh uning soyasida uxlashni xush ko'rardi. Uning barglari shu qadar qalin ediki, undan tangadek soya o'tmasdi. Kunlarning birida podsho o'sha daraxtning ostida uxlab yotganda, ko'ziga quyosh nuri tushib, uyg'onib ketadi. Daraxtning zumrad barglaridan bir donasini kimdir o'g'irlab ketgandi. Ertasi kuni qarasa yana bitta barg yo'q. Shundan so'ng u kechasi bilan daraxtni qo'riqlab chiqishni uch o'g'liga buyuradi. Ikki katta o'g'li tongga yaqin uxlab qoladi. Kenja o'g'il uyqusi kelgan mahal qo'lini kesib, yarasiga tuz sepib





Xo'sh, bu ikki etnik qatlamni bir-biriga bog'lash uchun qanday asoslar bor? Aslida Amerika qit'asiga Kolumb qadami yetmasidan ming yillar avval ham insonlar yashagan, sivilizatsiyalar vujudga kelgan, yirik davlatlar mavjud bo'lgan. "Hindu" (indeyes) atamasi ham aynan Kolubmning "Hindistonga borib qoldim" degan xato tasavvuri tufayli istilohga kirgani va "g'alati mashhur" sifatida boshqa tillarga ham tarqalib ketgani sir emas.

Aslida "Yangi dunyo" atalmish qit'aning na janubiy, na shimoliy qismida "hindu" atalgan qavm yashamaydi. Ilmiy terminologiyada "qizil tanlilar" deb ataladigan bu xalqlar orasida araukanlar, apachilar, mayyalar, atsteklar, navaxolar, siular, inklar, irokezlar, delavarlar, singari yuzlab xalqlar yashashgan. Ayni paytgacha ular so'zlagan tillarning katta qismi yo'qolib ketgan. Faqat ayrim Janubiy Amerika mamlakatlarida kechua, aymara, guarani tillari saqlanib qolgan. Bu tillardagi folklor, yozma adabiyot, san'at va madaniyat namunalari katta qismi yevropaliklar bosqinlari natijasida yo'qotib yuborilgan.

Faqat 19-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, bir qator olimlar ularning madaniyati, tili va tarixi bilan bog'liq tadqiqotlar olib bora boshlaganlar. Amerikalik hindular (bugungi kunda ko'pincha "Mahalliy amerikalik xalqlar" deb yuritiladi) va Markaziy Osiyoning turkiy xalqlari o'rtasidagi mushtaraklikni izlash, tarixchilar va lingvistlar uchun juda qiziqarli, ammo ko'p jihatdan murakkab mavzu hisoblanadi. Bu ikki xalq guruhini birlashtiruvchi omil – ularning Shimoliy Osiyo (Sibir) orqali Amerikaga ko'chib o'tganligi haqidagi nazariyalardir.

Bu ertakni buvimdan takror va takror eshitganman. Keyinchalik maktabda o'qib yurganimda qo'limga kitob do'konidan "Shimoliy Amerika hindulari ertaklari" degan to'plam tushib qolgan. U yerdagi ertaklardan birining voqealari aynan buvim hikoya qilib bergan "Bulbuligo'yo" bilan bir xil edi. Ha, hayratlanarli darajada o'xshash. Qiziq, Shimoliy Amerika qayerda-yu Samarqand qayoqda? Umrida O'zbekistondan tashqariga chiqmagan, maktabda bor-yo'g'i beshinchi sinfgacha o'qigan rahmatli buvim bu ertakni qayerdan o'qidi yoki eshitdi ekan? Aniqki, buvim Shimoliy Amerika hindulari haqida oddiy tasavvurga ham ega bo'lmagan. Ammo u aytgan ertak atstek yoki mayya xalqlari folkloriga juda hamohang edi...

Nega bu voqeani eslayapman? Keyinchalik matbuotda amerikalik hindular va turkiylarning ildizlari bir ekani haqida juda ko'p maqolalar o'qidim, filmlar tomosha qildim. Kimlardir ularning ildizlari ming yillar osha bir nuqtada tutashishi haqida o'z farazlarini ilgari sursa, boshqa birovlar bu taxminlarni rad etishga urinardi.

Agar mantiqan olib qaralsa, turkiy xalqlarning ilk ajdodlari Oltoy hududida paydo bo'lgani, keyinchalik Markaziy Osiyo va boshqa hududlarga keng tarqalgani ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topadi. Boshqa tomondan turkiy xalqlar areali va Amerika qit'asini minglab kilometr ga yaqin masofa, bepoyon okeanlar ajratib turadi. Shu sababli turkiylar va hindular tarixining umumiyliigi haqidagi ilmiy qarashlar bir-biridan keskin farqlanadi.



Ilmiy taxminlarga ko'ra, Amerika mahalliy xalqlarining ajdodlari taxminan 15000-20000 yillar muqaddam, so'nggi muzlik davrida, Bering bo'g'ozida hosil bo'lgan tabiiy "ko'priq" orqali Osiyodan Amerikaga o'tishgan. Turkiy xalqlarning etnogenezi (shakllanishi) asosan Tog'li Oltoy, Sayan tog'lari va Shimoliy Mo'g'uliston hududlari bilan bog'liq. Bu mintaqa, jo'g'rofiy jihatdan Bering bo'g'ozidan uncha uzoq bo'lmagan, ko'chmanchilikka mos keladigan keng dala va tog'lik hududlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun, nazariy jihatdan, turkiy xalqlar va amerikalik hindularning etnogenetik "qaynoq nuqtalari" o'rtasida umumiy migratsiya zanjiri mavjud bo'lgan, degan qarashlar mavjud.

kabi so'zlarning fonetik o'xshashliklari ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokamaga tashlangan edi.

Amerika va Yevropada so'nggi to'rt asrda Mark Boas, Frans Gli-son, Genri Allan Grinberg, Jon Jasteson, Terrens Kaufman, Yuriy Knorozov, Kou Maykl, Alfred Kryober, Chestmir Loukotka, Pamela Manro, Marianna Mitun, Jon Pauell Uesli, Rulen Merrit, Jon Maketosh, Suonton, Xaas Meri, Xarrington, Jon Pibodi, Cheyf, Uolles, Otto Rerig kabi olimlar Amerika tub xalqi hayotini ilmiy jihatdan o'rganishga harakat qilganlar. Jon Maketosh 1853-yili Vashingtonda nashr etilgan Amerika tub xalqi haqidagi maqolasida ularning tilini (asosan maya tilini) turkiy tillar bilan bir oilaga mansub ekanligini aytib o'tadi.

Nemis olimi Otto Rerig(1819-1908) nemis, fransuz, turk, ingliz, lotin va Amerika hindulari tillarini yaxshi bilgani sabab Amerikadagi Siu tillarining fonetikalari ham turk tili fonetikasi kabi singormanizm qoidalariga bo'ysinishini aniqlaydi. Tilshunos olim A. G. Karimullin (1925-2000) qu-quv, as-oz, aak-oq, tou-tog', ari-oriq, ozg'in; kok-ko'k, osmon so'zlari amerikaning tub




Turkiy va Amerika mahalliy tillari o'rtasida umumiylikni aniqlashga uringan tadqiqotchilar ko'p bo'lgan, ammo bu borada yagona umumiy konsensus mavjud emas. Eng katta shakliy o'xshashlik har ikkila etnik qatlam tillarining agglutinativ til oilalariga mansubligidir. Ya'ni turkiy tillarda ham, Amerika hindularining Na-Dene yoki Siu-Katovan tillari qo'shimchalari qo'shilib borishi bilan ma'no o'zgaradigan tillar hisoblanadi (masalan "temir", "temirchi", "temirchilik" singari). XX asrning boshidayoq Sibir xalqlari va ayrim Amerika mahalliy tillaridagi "ona", "ota", "suv", "qo'y"

aholisi va turkiylarda bir xil ma'noni bildirishini ta'kidlagan. Shu bilan birga mayya tilida quyosh "kin", ochipve tilida ota "baba", atstek tilida tepa "tepeti", siu tilida ona "nana" deyilarkan.

Joy nomlari lug'atiga nazar tashlasak, bu o'xshashliklar son-sanoqsiz ekanligini ko'rasiz. AQSH, Kanada, Meksika hududlaridagi "Jilan", "Tulum", "Yashil", "Ichmul", "Tas", "Tapich" - "Tepich", "Kachi", "Shaman-sama", "Chigen", «Sayil» singari toponimlar turkiy so'zlarga juda yaqinligi bilan e'tiborni tortadi.

Amerika tub aholisining ismlarida ham turkiy xalqlarda uchraydigan an'analarni yaqqol kuza-tish mumkin. Amerika tub xalqlarida hayvonot va nabotot olami, tabiat hodisalariga oid ismlar juda ko'p. Baland Osmon, Tinch yer, Bo'ronli dala, O'tkir Ko'z, Ulkan Tosh singari ismlarni turli Amerika hayotiga oid badiiy asarlar va filmlarda ko'p eshitganmiz. Turkiylarda ham Bo'ron,





ustun bo'lgan. Qabilaviy mansublik shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yilgan. Jamiyatda oqsoqollar (yetakchilar) va kengashlarning roli juda katta bo'lgan. Amerika mahalliy xalqlarining tabiatga chuqur hurmat bilan yondashuvi – har bir jonzot, o'simlik, tabiat hodisasining o'z ruhi borligiga ishonish – turkiy xalqlarning an'anaviy tangrichilik e'tiqodi yoki shamanlik unsurlariga juda yaqin.

Otning turkiy xalqlar hayotidagi o'rnini nihoyatda muhim. Amerika hindulari ham ot minishda, chavandozlikda, ovchilik va merganlikda juda ilg'or bo'lishgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, amerikalik hindular va turkiy xalqlarning ajdodlarining ming yillar avval umumiy ildizga borib taqalishi ehtimoli juda katta. Qolaversa, tadqiqotlarda o'xshash jihatlar ko'plab aniqlangan. Endi maqolamiz boshida rahmatli buvimdan eshitgan xalq ertagiga qaytsak, masala yanada oydinlashadi. Ming yillar davomida bizdan o'n minglab chaqirim olis masofada yashagan hindular o'zlari bilan qadimiy qadriyatlarini olib chiqib ketishgani juda-juda ishonarli.

Yashin, Yildirim, Uchqun, Tosh, Temir, Bo'ri, Ajdar (Aydar), Arslon, Yo'lbars, Lochin, Burgut, Shohin, Chinor singari ismlar ko'plab uchraydi.

Amerika tub xalqlarining ko'plari ismlarini yomon ruhlardan, jinlardan, ko'z tegishdan, duodan qo'rqib yashirganlar va o'zlarini boshqa nomlar bilan ataganlar. Turkiy xalqlarda ham Tilaboldi, Itolmas, O'lmas, Umurzoq, Adash, Tursun ismlar keng tarqalgan.

Ikki qavm orasida o'xshashlik ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va dunyoqarashda ham namoyon bo'ladi. Bu o'xshashliklarning sababi, ikki guruh ham ma'lum bir davrda, bir xil tabiiy sharoitlarda (keng dalalar, o'tloqlar) ko'chmanchilik yoki yarim ko'chmanchilik bilan shug'ullanganligidir. Qadimdan turkiylarning asosiy turmush tarzi bo'lgan ko'chmanchilik va chorvachilik,

Markaziy Amerikadagi Lakota, Siu, Shayen kabi qabilalarning hayoti bilan uyg'un bo'lgan. Ikki madaniyatda ham urug'-qabila tizimi, urug' oqsoqollariga bo'ysunish, yoshi ulug' kishilarga hurmat



Rustam JABBOROV


(ULAR BILAN
BOG'LIQ QIZIQ
VOQEALAR)

Dunyoning martdagi mehtomolari



Alixonto'ra SOG'UNIY

20-asr boshida Turkiston ozodligi uchun kurashgan, keyinchalik surgun va ta'qiblar sharoitida yashab, tarixiy va ma'naviy meros qoldirgan olim, muarrix va milliy uyg'onish arbobi. U 1885-yilning 21-martida Turkistonning To'qmoq shahrida tug'ilgan. To'qmoqning tarixiy nomi Bolosog'un bo'lgani uchun Alixonto'raning taxallusi ham shunga monand. Madina shahrida va keyin Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olib, ulug' olim va siyosiy arbob bo'lib yetishgan Sog'uniy Buxoroda Islom dinidan dars beradi. Turkistonga qaytib, mustabid bosqinchilarning mahalliy aholi vakillarini mardikorlikka olish siyosatiga qarshi chiqadi. Biroq keyin Qashqarga ketishga majbur bo'ladi. Va o'sha yerda ham diniy, ham siyosiy faoliyatini davom ettiradi. 1944-yil 12-noyabrda Sharqiy Turkiston jumhuriyati e'lon qilinib, Alixonto'ra Muvaqqat inqilobiy hukumat raisligiga saylanadi. Uning "Tarixi Muhammadiy", "Turkiston qayg'usi" asarlari mashhur. Muallifning o'zi asarida ta'kidlashicha, "Turkiston qayg'usi"ning qiymatini oshiruvchi asosiy unsurlardan biri uning, chig'atoy turkchasida, ya'ni klassik o'zbekchada "Boburnoma" uslubini davom ettirib yozilgani.



Albert EYNSHTEYN

1879-yil 14-martda Germaniyaning Ulm sharida tugʻilgan. Uni barcha zamonlarning eng buyuk va eng katta taʼsirga ega fizik olimi deb atashadi. U nisbiylik nazariyasi asoschisi, maydon kvant nazariyasi va statistik fizika asoschilaridan biri. 1933-yili Eynshteyn Amerikaga tashrifi chogʻida Adolf Gitlarning hokimiyat tepasiga kelishi uning Germaniyaga qaytmasligiga sabab boʻlgan. Nemis rejimi hatto uning boshiga 5000 dollar mukofot taklif qilgan. Eynshteynga Irsoil prezidentligini taklif qilishgan, biroq u buni rad etib, keyinchalik bu haqda “bir vaqtning oʻzida qaygʻuli va uyalgani”ni yozgan. “Men uchun yahudiy dini ham boshqa dinlar kabi eng bolalarcha xurofotlarning mujassamidir. Men mamnuniyat bilan mansub boʻlgan va mentalitetiga juda yaqin boʻlgan yahudiy xalqining men uchun boshqa barcha odamlardan farqi yoʻq. Men ular haqida “tanlangan” hech narsani koʻrmayapman”, degan edi Albert. U hayotining oxirgi qismidagina vegetarianga aylanib, shunday soʻzlarni yozadi: “Demak, men yogʻsiz, goʻshtsiz, baliqsiz yashayapman, lekin oʻzimni juda yaxshi his qilyapman. Menimcha, odam yirtqich boʻlish uchun tugʻilmaganga oʻxshaydi”.

Zulfiya ISROILOVA

1915-yil 1-martda Toshkentda, Oʻqchi mahallasida tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq shoiri, jurnalist, tarjimon. Shu bilan birga, “Sotsialistik Mehnat Qahramoni”, 2 marta Lenin, 3 marta Mehnat Qizil Bayroq, Xalqlar doʻstligi, “Hurmat belgisi”, “Mehnatda oʻrnak koʻrsatganlik uchun”, Hamza nomidagi Oʻzbekiston SSR Davlat mukofoti, Javoharlal Neru, “Nilufar” va “Doʻstlik” kabi bir qator ordenlar sohibasi. Shoira Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstriya kabi mamlakatlarda boʻlgan. Uning sheʼrlari rus, ingliz, nemis, hind, bolgar, xitoy, arab, fors kabi tillarga tarjima qilingan. Zulfiya deganda koʻpchilik “Bahor keldi seni soʻroqlab”, “Men oʻtgan umrimga achinmay qoʻydim...” sheʼrlarini esga oladi. Uning sharafiga Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi 2,3 km.lik koʻchaga Zulfiyaxonim nomi berilgan.



Ozod SHARAFIDDINOV

1929-yil 1-mart sanasida Qo'qon yaqinidagi Oxunqaynar qishlog'ida tug'ilgan. Adabiyotshunos, adabiy tanqidchi, tarjimon ham. Xususan, Tolstoyning "Iqrornoma", Koeloning "Alkimyogar", Sevelaning "To'xtating samolyotni, tushib qolaman!" asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. U o'zbek adabiyotining Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, Odil Yoqubov, O'tkir Hoshimov singari namoyandalari haqida adabiy portretlar yaratgan. Abdulla Qahhorga nisbatan nohaq ayblovlar qo'yilganda uni himoya qilgan. Cho'lpon adabiy merosi haqida qator tadqiqotlar qilgan. "Cho'lponni anglash - Vatanni, ko'hna Turkistonimizni Cho'lpon ko'zi bilan ko'rib, Cho'lpon yuragi bilan seva bilmog'dir", - degan edi Ozod Sharafiddinov. Navoiyshunos olimi Suyima G'aniyeva "Ozodjon, nega haligacha doktorlikni yoqlamagansiz?" deb so'raganida Sharafiddinov "shuyam doktormi, degandan ko'ra hali ham nomzod bo'lib yuribdimi, degan gap yoqimliroq" deb javob bergan ekan. Ozod Sharafiddinovni "xarakter" so'zini nisbatan ko'proq ishlatganini aytishadi. "Ha, biz mehmondo'st xalqmiz. Davlat hisobidan bo'lsa, judayam mehmondo'st bo'lib ketamiz, yonimizdan chiqarib mehmon qilsak, hisob-kitob bilan qilamiz", degan edi u intervyularining birida.



Bobomurod HAMDAMOV

1940-yil 4-mart kuni Turkmanistonning Chorjo'y shahrida tug'ilgan. O'zbekiston, Qoraqalpog'iston va Turkmaniston xalq artisti. U O'zbek, tojik, turkman, hind tillarida qo'shiqlar kuylagan. Ovozi hindchaga yaqin bo'lgani uchun dastlab hindcha qo'shiqlar aytgan. Bobomurod Hamdamov professional san'atga kirib kelguncha ko'tarma kranchi sifatida qurilishda ishlagan. Uni sahnada mashhur hofiz, hayotda esa oddiy muammolar bilan kurashgan inson sifatida eslashadi. "Xorazm qo'shiqlari bir gujum bo'lsa, men ham uning bir shoximan. Qo'shiqlarimni sizlar eshitmaganda men ashulachi bo'lmas edim" degan edi Bobomurod Hamdamov. U oxirgi marotaba 2022-yil "Turkiston" san'at saroyida 82 yoshida konsert bergan. Oradan 2 yil o'tib 2-sentabrda vafot etgan. So'nggi yillarda uning "Kim ekan" qo'shig'i eng yuqori darajada xitga aylangan.

Dadaxon HASAN


1940-yil 15-mart kuni Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanida tug'ilgan. Shoir, hofiz, jurnalist, bastakor, siyosatchi. 60-yillarda „Hamzachilar“ deb nomlangan Sovet tuzumiga qarshi madaniy-ma'rifiy uyushmaning tashkilotchilaridan biri. 1970-yilda Leninning 100 yilligi tadbirida tomoshabinlar rasmiy nutqlarni tinglashni rad etib, faqat Dadaxon Hasanov qo'shiq aytishini talab qilgan. Bu esa hukumatning hofizga bo'lgan munosabati keskinlashuviga sabab bo'ladi. Oradan bir hafta o'tmasdan, "Sovet O'zbekistoni" gazetasida Dadaxon Hasanga qarshi felyeton bosib chiqiladi. Dadaxon Hasan milliy, ma'naviy va diniy qo'shiqlar aytgani, xususan, Ahmad Yassaviy, Maxtumquli, So'fi Olloyor, Huvaydo, Cho'lpon, Rauf Parfi, Abdulla Oripov hatto Erkin Vohidov she'rlarini qo'shiq qilib kuylagani uchun 3 yil davomida prokuraturada so'roq bergan. Hofiz shuningdek, Turkiston, jadidlar, Orol fojiasi, ketmonchi va o'ziga o't qo'yayotgan ayollar, Rossiyada harbiy xizmat paytida o'ldirilgan o'zbek askarlari, paxta quldorlik ekini, qatag'on qilinganlar, Afg'on urushi, adolatsizlik, zulm-istibdod xususida bir qator qo'shiqlar kuylagan. 2017-yil Shavkat Mirziyoyev uni "qora ro'yxat"dan chiqardi. Dadaxon Hasanovning "Laylo", "Bir kecha", "Odam bo'lmaydilar" kabi ko'plab xit qo'shiqlari haligacha tinglanadi.





Abdulla ORIPOV

1941-yil 21-martda Qashqadaryoning Koson tumanida tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq shoiri, Oʻzbekiston qahramoni. Shuningdek, “Doʻstlik”, SSSR “Xalqlar doʻstligi”, Italiya yulduzi, Xalqaro “Oltin yulduz” ordenlari sohibi. Abdulla Oripov ijodida sheʼriyatning deyarli barcha turlaridan uchratish mumkin. U Oʻzbekiston madhiyasi muallifi. Uni zamonaviy oʻzbek adabiyotining Navoiysi ham deyishadi. Abdulla Oripov Oliy Majlis deputati, Senat aʼzosi sifatida ham faoliyat yuritgan. Bir gal Abdulla Oripov va Andrey Voznosenskiy Koreyaga butun dunyo shoirlari anjumaniga borishadi. Koʻcha kezib yuzganda Abdulla Oripov bir sotuvchidan tuflni xarid qilmoqchi boʻlib, unga avval ruscha, keyin oʻzbekcha gapirib koʻradi. Shunda sotuvchi dargʻazab boʻlib, shoirga koreyschalab baqira ketadi. Ikki shoir esa nima boʻlayotganini tushunmay qolishadi. Qayerdandir inglizchani biladigan odam kelib, ularga sotuvchi Abdulla Oripovni koreys deb oʻylagani, “nega oʻz ona tiling boʻlgan koreys tilini unutib yubording, endi sen ham odam boʻldingmi, senga tuflni hayf, sen xiyonatkor battolsan!” deb haqorat qilganini tushuntiradi. Sotuvchiga ular Sovet Ittifoqidan mehmonligini aytgandan keyin koreys sotuvchi choʻkkalab uzr soʻragan ekan. Abdulla Oripov haqida 2023-yilda badiiy film ishlangan. Unda Oripovning oʻrta yosh davrini shoir Shodmonqul Salom ijro qiladi.



Gʻulomjon YOQUBOV

1950-yil 1-martda Toshkentda tugʻilgan. Oʻzbekiston, Qoraqalpogʻiston xalq artisti. Kuchli va yoqimli ovozga ega xonanda. Ham aktyor. Ha, u “Shaytanat” va “Katta hovli” filmlarida rol ijro qilgan. Gʻulomjon Yoqubovga 2025-yil 1-martda Shavkat Mirziyoyev “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni berish toʻgʻrisida farmon chiqaradi, shu kuni farmonni uning yubiley konsertida prezident maslahatchisi Xayriddin Sultonov oʻqib eshittiradi va mukofotni Senat raisi Tanzila Norboyeva topshiradi.

Gʻulomjon Yoqubovning “Dilorom”, “Oʻylasam” kabi qoʻshiqlari ayniqsa mashhur. Xonanda Ortiq Otajonovning “Umr oʻtar” qoʻshigʻini kaver shaklida qayta kuylagan.

Gʻulomjon Yoqubov 3 yoshidan otadan yetim qoladi. U urush vaqtida yetim bolalarni asrab olgan Shomahmudovlar oilasi bilan bir mahallada yashagan. “Mahallamizda turmush oʻrtogʻi urushdan qaytmagan ayollar juda koʻp edi. Onam rahmatliga ham koʻp joydan sovchilar kelgan. Ammo hamisha rad javobini berardi”, degan Yoqubov intervyularidan birida. U kichkinaligida qoʻshnisining uyi uchun gʻisht quyib berib, puliga rubob sotib olgan.

Kventin TARATINO

1963-yil 27-martda AQSHning Noksvill shahrida tugʻilgan. Oʻzgacha va oʻta noyob kinorejissyor. 17 yoshida maktabni tashlab, aktyorlik maktabiga oʻqishga kiradi. Tarantinoning filmlari undagi zoʻravonlik real emas, chiroyli va komik tasvirlangani uchun ham shuhrat qozongan, deyish mumkin. Biroq filmlarida jang sahnalaridan ham koʻproq uzoq va kuchli suhbatlar mashhur. Tarantino koʻplab rejissyorlardan farqli ravishda baʼzi sahnalarni joyida oʻzgartiradi, aktyor bilan improvizatsiya qiladi. U “Jinoiy asar” filmi uchun Oskar olgan. Umuman olganda bu kino tuzilishini buzgan eksperiment edi. “Jinoiy asar” Fransis Koppolaning mashhur “Choʻqintirgan ota” filmiga hurmat sifatida yaratilgan. Kventinning “IQ”sini 160 deb baholashgan. U oʻzini “Ozod Jango” filmi soʻnggida “portlatib” yuboradi. Kventin 10 ta film suratga olaman va toʻxtayman, deb vaʼda bergan. Hozirda uning hisobi boʻyicha suratga olgan filmlari soni 9 ta.



Amir XON

1965-yilning 14-martida Mumbayda tugʻilgan. Aktyor, rejissyor.

“Janob Perfeksionist” nomi bilan mashhur Amirxon ishini sahna ortida boshlagan. U mohir tennis oʻyinchisi boʻlgan. Amirxon “Dangal” filmi uchun ham 97 kilogrammgacha semirib, ham ozishiga toʻgʻri kelgan. “Uch savdoyi” filmida rol oʻynaganda 44 yoshda boʻlgan. Shuning uchun u oʻz yoshini psixologik jihatdan qayta “sozlagan”. Amirxonning “Pikey” filmi ham “Uch savdoyi”dan kam shuhrat qozonmagan. “Qaysi maʼbudga ishonish kerak? Haykalgami? Men esa notoʻgʻri deyman. Hammamizni bitta tangri yaratgan. Ikkinchisi boʻlishi mumkin emas. Bizni yaratgan tangri haqida koʻp ham aql ishlatavermaylik! Aqlimiz ojizlik qiladi. Oʻzimizcha maʼbud yasab, pastkash, surbet, soxta vaʼdalar beruvchi, faqat boylar qatorida yuruvchi, kambagʻallarga qiyo ham boqmaydigan, manfur, faqat soʻzlar bilan qoʻrqituvchi odamlar ham bor ekan. Bizning hammamizni faqat Yaratgan boshqaradi. Unga sherik yoʻq, boʻlishi ham mumkin emas. Men shunday deb oʻylayman”, deydi Pikey rolidagi Amirxon filmida u bilan bahslashayotgan rohibga.

Otabek RAHMATILLA oʻgʻli tayyorladi

“QIYOMIAT KUNI”

OMBORD

2025-yil iyun holatiga ko'ra, urug'lik omborida 1 355 591 ta namuna saqlanib qolgan. Svalbard Global Seed Vault “Time” jurnalining 2008-yilgi eng yaxshi ixtirolar reytingida 6-o'rinni egallagan. U 2009-yil uchun Norvegiya yoritish mukofotiga sazovor bo'lgan. U loyihalarni boshqarish instituti tomonidan so'nggi 50 yil ichidagi eng nufuzli 10-loyiha deb topilgan.

Yer yuzidagi katta m a s s h t a b -dagi urushlar, tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishi sabab ko'plab o'simlik turlarining yo'qolish xavfi mavjud. Norvegiya qirolligiga qarashli Svalbard orollarida joylashgan Svalbard **Global Seed Vault** (“Qiyomat kuni ombori”) dunyo ekinlari xilma-xilligini saqlab qolish uchun

tashkil etilgan zaxira inshootidir. Bu yerda dunyoning deyarli barcha nuqtalaridan keltirilgan urug'larni juda uzoq muddatga saqlash imkoniyati bor. Ombor tog' ichida – 120 metr chuqurlikda joylashgan. U yadro portlashlari, zilzilalar, suv toshqinlari va hatto global urushlardan ham himoyalangan tarzda loyihalashtirilgan. Bu omborda dunyoning deyarli barcha mamlakatlaridan to'plangan bir milliondan ortiq o'simlik urug'lari saqlanadi. Har bir mamlakat o'ziga tegishli urug'larni yuboradi, masalan, bug'doy, guruch, makkajo'xori, loviya kabi asosiy ekinlar. Ular maxsus alyuminiy qadoqlarga joylashtirilgan. Ombor “so'nggi zaxira” sifatida ishlaydi: agar biror joydagi urug' banki yo'qolsa, Svalbard omboridagi nusxalar yordamida o'sha o'simliklar qayta tiklanadi.





2018-yil 26-fevralda Seed Vaultning 10 yilligi munosabati bilan muassasaga 70 000 ta namuna yetkazib berildi, natijada olingan namunalar soni bir milliondan oshdi.

Ombordagi urug'lar uch qavatli folga o'ralgan paketlarda saqlanadi va keyin metall javonlarga o'rnatilgan plastik idishlarga joylashtiriladi. Har bir paketdagi urug'lar soni


Urug'lar ombori Norvegiya hukumati, Crop Trust va Nordik genetik izlanish markazi tomonidan boshqariladi. Ombor rasman 2008-yil 26-fevralda ochilgan. Birinchi yillikda 90 000 dan ortiq oziq-ovqat ekinlari urug' namunalari omborga joylashtirilgan, bu bilan namunalarning umumiy sonini 400 000 taga yetadi. Yangi urug'lar orasida Irlandiya milliy genbanklaridan 32 ta kartoshka navi va AQSh qishloq xo'jaligi tadqiqotlari xizmatidan 20 000 ta yangi namunalar keltiriladi. Boshqa urug'lik namunalari Kanada va Shveysariyadagi genbanklardan, shuningdek, Kolumbiya, Meksika va Suriyadagi xalqaro genbanklardan keltirilgan. 2013-yilga kelib, butun dunyo bo'ylab gen banklarida saqlanadigan turkum xilma-xilligining taxminan uchdan bir qismi "Qiyomat kuni ombori"da namoyish etilgan.

2015-yilda tadqiqotchilar davom etayotgan mojaro-lar tufayli Shpitsbergenda himoya qilish uchun Yaqin Sharqdan urug'larni yuborishni boshladilar. 2016-yil oktabr oyida Seed Vault o'rtacha haroratdan yuqori va kuchli yog'ingarchilik tufayli g'ayrioddiy darajada suv kirib kelishiga duch keldi. Seed Vault suv kirib kelishiga bardosh bera oladigan qilib yaratilganligi sababli urug'lar xavf ostida qolmadi. Natijada, Norvegiya jamoat ishlari agentligi 2019-yilda kela-jakda bunday holatlarning oldini olish uchun tunnel devorlarini gidroizolyatsiya qilish, tunneldan issiqlik manbalarini olib tashlash va tashqi drenaj ariqlarini qazish kabi ishlarni amalga oshirdi.



urug'ning hajmiga qarab o'zgaradi, lekin o'rtacha har bir paketda taxminan 500 ta urug' mavjud. Muassasa 4,5 million urug' namunasini saqlash imkoniyatiga ega. Urug'lar -18 °C haroratda saqlanadi. Past harorat va kislorodga cheklangan kirish metabolik faollikning pastligini ta'minlaydi va urug'larning qarishini kechiktiradi. Elektr ta'minoti uzilgan taqdirda, obyekt-ni o'rab turgan abadiy muzlik urug'larning past haroratini saqlab turishga yordam beradi.

Urug'lar qanday sharoitda saqlanadi?



2025-yili O'zbekiston ham Norvegiyada joylashgan ushbu Butunjahon urug' omboriga 20 dan ortiq qishloq xo'jaligi ekinlari, xususan, qovun, tarvuz, pomidor, qalampir, baqlajon, sabzi, piyoz va boshqa mahalliy nav urug'larini topshirdi. Bug'doyning "Qayroqtosh" navi alohida ahamiyatga ega, deya ta'kidlaydi ekspertlar. Materiallarni dunyodagi eng yirik va xavfsiz urug'lik omboriga yetkazib berish tashabbusi O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti va Shimoliy genetik resurslar markazi hamkorligida amalga oshirilgan. O'zbekiston global urug' fond zaxiralarini to'ldirgan Markaziy Osiyodagi birinchi davlat emas. Masalan, 2024 yil, mart oyida Qozog'iston olimlari omborga beda, suliv va boshqa yovvoyi o'simliklar urug'ini topshirdi.

Insoniyatning eng xavfli "merosi" uchun ombor

ishlab chiqdi. Bu jarayonda plutoniy va boshqa radioaktiv moddalar bilan ifloslangan jihozlar, kiyimlar, filtrlar, metall buyumlar va laboratoriya chiqindilari paydo bo'ldi. Bu chiqindilar minglab yillar davomida xavfli bo'lib qoladi. Oddiy poligon yoki ombor yetarli emas edi. Shuning uchun radioaktiv chiqindilarni Yerning o'zida "abadiy yashirib qo'yish" g'oyasi asosida yaratilgan. Bu joyni yadro elektr stansiya yoqilg'isi emas, balki asosan harbiy va ilmiy chiqindilar uchun mo'ljallangan, deb atashadi. Nega aynan tuz qatlamlari tanlangan? Tuz suv o'tkazmaydi, vaqt o'tishi bilan "oqib", yoriqlarni o'zi yopadi, shaxtani asta-sekin "bosib", bo'shliqlarni to'ldiradi.



"Waste Isolation Pilot Plant" – AQShdagi yagona radioaktiv chiqindilarni 10 000 yil davomida saqlash uchun litsenziyalangan chuqur geologik ombor. Uni insoniyatning eng xavfli "merosi" saqlanadigan joy desa ham bo'ladi. WIPP AQShdagi eng noyob va muhim ilmiy-texnik inshootlardan biri bo'lib, u oddiy ombor emas, balki radioaktiv chiqindilarni uzoq yillar davomida tabiatdan va odamlardan xavfsiz ajratib qo'yish uchun qurilgan yerosti geologik ombor hisoblanadi. WIPP AQShning Nyu-Meksiko shtatidagi Chihuahuan cho'li hududida, Karslbad shahri yaqinida joylashgan. Zavod 1999 yilda ish boshlagan va loyihaning umumiy qiymati 19 milliard dollarga baholanadi. U yer yuzasidan taxminan 650–660 metr chuqurlikda. Qadimiy tuz qatlamlari ichida joylashgan. Bu tuz qatlami 250 million yil avval qadimgi dengiz bug'lanishidan hosil bo'lgan. Yigirmanchi asr o'rtalari, Sovuq urush davrida AQSh juda ko'p yadro qurollari





AQShning turli yadroviy laboratoriyalaridan olib kelinadigan chiqindilar omborning maxsus konteynerlarida yer ostiga tushiriladi. Tuz konida qazilgan katta kameralar ichiga joylashtiriladi. Keyin bu bo'limlar muhrlanadi. Vaqt o'tishi bilan tuz ularni asta-sekin qamrab oladi. WIPP 10,000 yilgacha xavfsiz saqlash uchun loyihalashtirilgan. Hozirgi rejalarga ko'ra, u 2050-yillardan keyin ham ishlashi



mumkin. 2014-yilda zavodda sodir bo'lgan turli baxtsiz hodisalar tobora ortib borayotgan chiqindilar zaxirasi bilan nima qilish kerakligi va WIPP xavfsiz omborxonaga bo'ladimi yoki yo'qmi degan muammoga e'tibor qaratdi. 2014-yildagi hodisalar chiqindilar portlashi va radiologik materiallarning havoga chiqishi bilan bog'liq bo'lib, natijada 21 nafar zavod ishchisi xavfsizlik chegaralari doirasida bo'lgan kichik dozalarda nurlanishga duchor bo'lgan. Keyinchalik xavf bartaraf etilib, ombor ishlashda davom etgan.



Zavodning 21 ishchisi radioaktiv nurlangan

Ombordagi jarayon bir necha bosqichdan iborat. Chiqindilar maxsus metall konteynerlarga joylanadi va qattiq nazoratdan o'tadi. So'ngra 650 metr chuqurlikka shaxta orqali tushiriladi. Bu yerda ularga abadiy "xona"lar qazilgan. Konteynerlar tuz ichidagi kameralarga qo'yiladi va muhrlanadi. Tuz asta-sekin bosim bilan bo'sh joylarni to'ldiradi, konteynerlarni qamrab oladi. Natijada bir necha o'n yilliklardan keyin bu joylar butunlay tabiiy ravishda yopilib ketadi. WIPPning yakuniy maqsadi – ombor to'ldiriladi, butunlay yopiladi va hech qachon qayta ochilmaydi. Harholda, shunday niyat qilishgani ma'lum.


Svalbard, ya'ni Qiyomat kuni ombori hayotni saqlash, kelajakni tiklashga xizmat qilsa, WIPPDan esa xavfni yashirish, kelajakni himoya qilish maqsad qilingan. Biz yaratgan muammo minglab yillar davom etadi, lekin to'g'ri ilm va muhandislik bilan uni boshqarish mumkin.

**Internet ma'lumotlari asosida
Manzura Abduhakimova tayyorladi**

“KO‘NGLIM-A ORZULAR SOLGAN QISHLOG‘IM...”

T

ong hali otmagan. Derazadan milt-milt yulduzlar ko‘ri-
nadi. Asta o‘rnimdan qo‘zg‘alдим. Bobom bilan buvim
bomdodga harakat qilishmoqda. Baraka kiradi deya
bobom har kuni ertalab eshikni ochib qo‘yadi. Azon
aytayotganini eshitib esa ichim huzurga to‘lib ketdi.
Tashqariga chiqdim. Chiqishim bilan tongning mayin
shamoli qitiqlagandek bo‘ldi. Toza havodan to‘yib nafas olib oldim-u,
ichimdan xursand bo‘lib ketdim: tirikman, yashayapman. Shukur! Qan-
day baxtliman-a!



Uzoqdagi terakning uchiga qush in solibdi, bolasiga yemish tashiyapti: erta bilan turib olganini qarang. Kecha bulut ortida yashirinib dam olgan quyosh bugun erinibgina o'rnidan turyapti. Xo'rozlar xuddi kelishib olgandek baravariga qich-qirishmoqda. Shamol esgani sayin daraxtlar salom bergandek egilib-egilib qo'yadi. "Ko'p yashanglar" dedim kulimsirab. O'rik gullay boshlabdi. Bahorning ifori ko'ngildagi tugunlarni yechib, hayotga qiziqish uyg'otib yuboradi-ya. Bizning qishloqqa bahor ham boshqacha keladi-da o'zi. Birdan yangi rejalar, yangi umidlar paydo bo'lib, ruhim tetiklashdi. Bog'ni tomosha qila boshladim. Bobom bilan buvim hamma meva-sabzavotni parvarishlab qo'yibdi. Qanday chiroyli!



Onasi uxlatishga olib kirib ketgan bolakaylar onasini uxlatib qochib o'yinga chiqishadi

Atrof birdan jimjitdek tuyulib ketdi. Hali hech kim ko'chaga chiqmagan. Faqat tabiat va qushlarning jonli ovozi musaffolik hissini tuydiryapti. Hovlining orqa tarafiga qurilgan halinchakda biroz uchib xayol surib oldim. Namozini o'qib bo'lgan bobomni badantarbiya qilgani ko'chaga chiqishga undayman. Badantarbiya qilmaymiz-u, suhbatlashib yuramiz. Qiziquvchanligim tutib ko'chamizning tarixi-yu bu yerda avval kim yashagani, nega bunday nom qo'yilgani, falonchi qarindoshimizni mendek vaqti nima ish qilgani va boshqa-boshqa savollarim bilan bobomni so'roqqa tutaman. Bobom ham erinmay hammasiga javob bera boshlaydi.

O'ylab qolaman: meni bu g'alati savollarimga faqatgina bobom yaxshi javob topib beradi-yey. Tong hali to'liq otmagan. Buvim tovuqlarga don berish payida yuribdi. Uyga kirib kitob o'qimoqchi bo'ldim. "Bahor qaytmaydi"ning yarmiga kelibman. Ikki bet o'qib uxlab qolganimni o'zim bilmabman. G'alati tushlar ham ko'rib olibman orada. Uyg'onib ketsam, kelinoyim nonushta tayyorlayotgan ekan. "Bugun dam olish kuni, uyqu kelsa uxlab olaver, turma", dedi buvim. Yuzimni yuviboq choyga yugurdim. Bobom ishga ketib bo'lgan. "Yong'oq, mayizlarni chiqarib, yeb ol", dedi buvim. Piyolani to'ldirib choy solib berdilar. "Uyga boray, onam ertaroq kel", degandi deya shoshila boshladim. To'xtab tur, deb kissasidan konfetmi yo boshqa narsa chiqarib, xurjunimni yana yegulik bilan to'ldirib yubordi...

Hozir o'ylab o'tirib, maktab paytida bobom-buvimning uyida qolib ketadigan paytlarim esimga tushdi. Qishloqda boshqacha halovat bor. Ayniqsa, bizning qishloqda. Ertalab hamma ko'chaga suv sepadi. Qo'shnilardan bittasi sening bolang, mening bolam deb o'tirmasdan hamma bolachalarni yig'ib, mashinasida bog'chaga tashlab keladi.

Chiroyligina kiyinib tollar qatorasiga o'sgan ko'cha bo'ylab bolalar maktabga chopqillaydi. Xotinlar ko'cha chetida yig'ilib, bo'g'irsoq pishirib o'tgan-ketganga tarqatishadi. Bolalar bog'chada, maktabda bo'lgani sababli peshingacha ko'cha jimjit bo'ladi-yu, keyin g'ala-g'ovur boshlanadi. Onasi uxlatishga olib kirib ketgan bolakaylar onasini uxlatib qochib o'yinga chiqishadi va mahallani hamma bolasini yig'ib, yo bekinmachoq, yo quvlashmachoq, yo o'zlari o'ylab topgan o'yinlarni o'ynab, ust-boshini chang qilib kech tushganda zo'rg'a uyiga kirishadi.



Mahalla bilan birga qilingan hamma narsa ajoyib



Yangi ko'ylak olgan kichkina qizlar kiyimini maqtagan bo'lib ko'chada bir-ikki aylanib chiqadi. Qaysidir qo'shnimiz kasal bo'lib qolsa, navbat bilan har kuni holidan xabar olib, ovqat tayyorlab olib boriladi. Shunday paytlarda qanday oqibatli ekanliklari yana-da yaxshiroq bilinadi. To'y boshlashsa-ku, ana, bayram hammaga. Bir yoqadan bosh chiqarib, to'yning barcha marosimlarida turib berishadi. Xullas, mahalla bilan birga qilingan hamma narsa ajoyib. Mehr-oqibat juda kuchli-da. Ta'riflasam adog'i yo'q.

Eh, qancha orzular shu yerda boshlangan, qanday insonlarni yetishtirib bergan-a bu qishloq! Shuning uchunmi, qishlog'imiz Xizr eli deb nomlanadi. Qandaydir sehrli kuchi borki, doim o'ziga tortaveradi, sog'intiraveradi. Shaharning hamma joyini aylanib, oz bo'lsa ham qishlog'im taftini topgim keladi-yu, lekin shahardagi katta binolar ham qishloqdagi uylardek salobatli ko'rinmaydi, bu yerda faqat shaharning tafti bor. Kim nima qildi, qayerga ketdi, qishloqda hamma bir-birini taniydi. Hatto, quyosh boshqacha charaqlaydigan qishlog'im mehri har doim men bilan! Va unda paydo bo'lgan orzularni amalga oshirish, qishlog'im sha'nini saqlash va obro'yini ko'tarish mening burchimdir. Axir, qishlog'imning mendan umidi katta...

Intizor SAMANDAROVA

NASR JAVONIDAN

MODIRABEGIM
IBROHIMOVA

HIKOYA

MUHABBAT VA SAVDO





— Shu chiroying bilan har qanday shahzodani oldingda tiz cho'ktirib, umr bo'yi tillaga ko'milib yashaysan, – deyishardi dugonalari unga havas ila boqib.

– Bu chiroying hali senga baxtsizlik keltirmasaydi, – deyishardi dugonalari unga hasad bilan qarab.

Jamila esa bu gaplarga parvo qilmasdi. Chunki u o'zini go'zal hisoblamas, chiroyidan so'z ochganlarga, “Xudoning yaratgan oddiy bir bandasiman-da”, deb kulib qo'yardi.

“Shunday lozar qizni kim qo'lga kiritarkin”, deya garov bog'lagan yigitlar ham ko'p edi. Ammo haligacha qizni biror yigit bilan ko'rganlari, gaplashganini sezganlari yo'q. Uni oshkora, undan ham ko'proq pinhona sevgan yigitlarning hisobi-chi... Bu pahlavon qishloq yigitlari ichida Shavkat boyvachchanning o'g'li Mavlon yetakchi edi. Qani uning oldida birov qizga zimdan ko'z tashlab ko'rsin-chi!

– Baribir Mavlon Jamilani hech kimga bermaydi, ovora bo'lib yurmanglar, – deyishardi yigitning oshnalari.

– Ko'z olaytirganini Mavlon “ko'pkari” qilib shunday tepadiki, ismini ham eslolmay qoladi, – derdi hoynahoy Mavlondan kaltak yeganlar.

Bu gaplar Jamilaning qulog'iga yetib bormasmidi? Borardi, albatta. Har qanday chiroyli qiz ham bunday mardona qasamlardan suyunmaydimi? Suyunadi, lekin Jamila emas. Uning orzusidagi shahzoda butunlay boshqacha edi...

Yangi o'quv yili boshlangach, kollejga poytaxtdan bir o'qituvchi yigitni jo'natishganini aytishdi. O'qituvchilar tayyorlaydigan institutda o'qiganmish, o'zi boshqa viloyatlik bo'lsayam, chekka bir qishloqda yoshlarga ta'lim berishni istab kelganmish. Bu gapni eshitgan qishloq ahli toza kulishdi. Shunday poytaxtni tashlab, topib kelgan joyini qarang-u buni...

Jamilaning kasb-hunar kollejini bitirar yili edi o'shanda. Yigit ularga tarixdan saboq bera boshladi. Uning boshqa domlalarinikiga o'xshamaydigan allaqanday sehrlil ma'ruzasi o'quvchilarni tek qotirib, dars tinglatardi. Ular orasida eng bilimga chanqog'i ham Jamila bo'ldi.

Kollejni bitirish arafasi. May oxirlab, issiq yoz kirar payt. Hamma o'quvchilar bitirish kechasiga tayyorlanish bilan band. Qishloqdagi yagona, Shavkat boy tashabbusi bilan qurilgan to'yxona bugun kollej bitiruvchilari uchun ajratilgan. Oqshom tushib, hamma bitiruvchilar-u domlalar yig'ilgach, qishloqdagi ilk yoshlar bazmi ochib berildi. Avvallari bunaqa kechalar qayoqda edi? Mana, yangi domlarning taklifi bilan diplom berish marosimi ham tashkil etildi.

Mavlon bu yerning xo'jasidek gerdayib yuribdi. O'zi kollejni ikki yil oldin tugatgan, institutga esa tobi kelmadi, mana, qishloqning eng oldi bekorchilaridan. U aslida Jamilaga dilrozini aytmoq istagida bu yerda hozir edi.

Tantanali diplom topshirish marosimi tugagach, raqs boshlandi. Barcha o'zi bilan o'zi: kimdir davrada tinmay sakraydi, kimdir sevimli ustoz bilan xayrlashadi, kimdir kelajakdagi orzularini do'stiga so'zlaydi, kimdir esa zimdan muhabbatini kuzatadi.

Oxirgi qatordagilar ichida o'sha yangi ustoz ham bor. Bu ko'z qarashlar yarim yildan beri negadir pinhona. Lekin ko'zdagi dildagini yashirolarmidi? Qanchalik yashirishga urinmasin, bu nigohlar o'ziga qadalganini sezmaydimi Jamila? Sezganda qandoq. Axir o'zining ham yuragini sirli tuyg'ular zabt etgan bo'lsa.

Ustoz va Jamilaning yo'qolib qolganini birov sezmad. Oshnalari bilan “qittay” olvolgan Mavlon ham bu yerga nega kelganini eslolmaydigan darajaga yetganda, uyiga sudrab ketishdi.

Soy bo'yi... Qishloqda nechta sevishgan bo'lsa, hammasi shu yerda izhor aytib, izhor eshitgan bo'lsa ajab emas. Bugun ular orasiga yangi juft qo'shildi. Lekin... boshqalardan farqli ravishda, ular jim. Faqat ko'zlar so'zlashadi. Yigit gapga no'noqmi yo qiz uyatchanmi, kim biladi? Lekin shunisi aniqki, gaplashmasalar-da, ular bir umr birga bo'lishga kelishib olganlar. Bu kelishuvga tillar emas, yuraklar qasam ichgan.

Qishloqda gap turarmidi? Yoz adog'iga yetmay, Jamilaning "ko'zi ko'r-u qulog'i kar" bo'lgani ayon bo'ldi. Hamma hayratda edi. Shundoq chiroyli qiz... qayerdagi odmigina, ko'zoynakli, doim bitta ko'ylag-u shimda yuradigan bu yigitni yoqtirib qolishi mumkinmi? Buning ustiga yetim ekan. Ismi ham o'ziga mos: Olim.

- O'zi darsda bir-biriga ko'z suzib o'tirishlaridan ma'lum edi, - deyishdi o'quvchilar.

- Domla ham ichidan pishgan ekan. Nega kelib-ke-lib bu yerga keldi desak, niyati buzuq ekan, yash-shamagurni! - deyishdi o'qituvchilar.



Yangi o'quv yilidan Olim dars o'tmaydigan bo'ldi: qarshilik qilishdi. O'z o'quvchisining boshini aylantirgani uchun qishloqdan badarg'a bo'ladigan bo'ldi. Ayniqsa, Jamilaning uyidagilar buni bilgach, o'qituvchining oldiga borib, aytadiganini aytishdi.

- Ikki dunyo bir bo'lsin, illo, qizimni uzoqqa, tag-zoti noma'lum kelgindiga bermayman!

Jamilani bo'lsa uy qamog'i kutardi. Yigit ketar kuni, uyidan yashirincha bir amallab chiqqan qiz ayanchli voqea ustidan chiqdi. Qishloq chetida yig'ilgan Mavlon boshchiligidagi yigitlar Olimni do'pposlashardi. Ko'zoynagi uchib ketgan yigit ularning xumordan chiqishlarini kutib tishini tishiga bosgandi. Jamila yugurib borib uni mushtlardan pana qildi.

- Qo'ling sinsin, Mavlon! - deb baqirganini hamma, go'yo butun qishloq eshitdi.

Oshnalari oldida nafsoniyati yerga urilgan Mavlon qizga yaqinlashib dedi:

- Olaqol, yetimchangni. Lekin bilib qo'y, hali oyog'imga tiz cho'kib yalinib kelasan! O'shanda... o'zim bilaman nima qilishni. Qadrimni bilmading! Xor bo'lasan!

Yigit ketdi. Qiz qoldi.

Jamila yashaydigan hovli eshigining turumini buzayotgan sovchilar siyraklashdi. Hamma qizning birov bilan gaplashib qo'rganidan xabardor-da. Shunday bo'lsa-da, haftada bir sovchi yuborishdan charchamaydigan Mavlon bo'lib o'tgan gaplarga qaramay, qizdan voz kechmadi. Qizining "qilig'idan"



keyin tashvishga tushgan ota-ona bu safar Mavlonga rozilik berishdi. Jamila non sindirilgandan so'ng bundan xabar topdi.

Indamas odamdan chiqarkan-da o'zi butun balo. To'yga uch kun qolganida Olimni qishloqda ko'rishibdi. O'sha kuniyoq uyida pashsha uchsa sezadigan Karomat opa Jamilaning uydan qanday chiqib ketganini sezmay ham qolibdi. Xullas, yigit qizni olib qochib ketgani ma'lum bo'lgach, butun asrga yetgulik gap topildi qishloqqa.

Shaharda ijaraga uy topishib, Olimning do'stlari ishtirokida kichikkina o'tirish - to'y bo'lib o'tdi. Nikohdan ham o'tishdi. Olimning kursdosh qizlari Jamilaga "guvoh", "yanga" bo'lishdi.

Ota-ona qizidan voz kechganini qishloqqa ma'lum qildi. Hamma undan voz kechdi-yu... Mavlon qaroridan qaytmadi. O'qishga kirish bahonasida poytaxtga ketdi. Kiribdiyam. Aslida esa shaharda faqat Jamilaning izini qidirdi. Olim o'zi o'qigan institutda dars berayotgan ekan. Zimdan kuzatib ijaradagi uyigacha topib bordi. Jamilani dom pastida yolg'iz uchratdi ham.

- Yarim yildan beri bo'laring bo'lgandir. Na to'y, na oq fotiha. Yashaydigan joyingni ahvoli... Yetar endi. Menam o'qishga kirdim: yuristlikka! O'tgan gaplarni unutdim, senga o'zim uylanaman, seni haliyam sevaman!

Jamila bir so'z demadi. Qahrli ko'zlaridan javobi ma'lum edi. Mavlondan ijirg'anib o'tib ketdi.

Jamila baxtli edi. Jamila baxtsiz edi. Baxti sevimli insoni yonida ekanligi, baxtsizligi ota-ona oldida aybdorligi... Olim esa umrida mehr ko'rmay o'sganidanmi, yettinchi osmonda kezar, Jamiladek yori borligiga ba'zan ishonmasdi ham.

O'zi shunaqa ekan. Og'zi oshga yetdi, deganda... Olimni ishdan qaytayotganda yo'lovchi mashina urib ketibdi. Bu ham yetmagandek, haydovchi Xudo be-xabar ekanmi, yigitni tashlab qochibdi. Odam siyrak ko'chada, shom qorong'usida jabrdiydani do'konga nonga chiqqan ayol ko'rib qolmaganida, Jamila bevaga aylanardi.

Shifoxonaga yetib kelgan Jamilaning yolg'izligi juda bilindi. Poytaxtda hech kimni tanimaydigan juvon kimga suyansin? Erining yashab ketishidan ko'ra o'limi aniq. Zudlik bilan operatsiya qilinmasa... lekin buning uchun katta pul kerak ekan.

Jamila qishloqqa borib ota-onasi qarshisida tiz cho'kib, ming malomat eshitib bo'lsa-da pul olib kelishga rozi edi. Lekin olis viloyatga qachon borib keladi? Birdan xayoliga Mavlon keldi. O'zi ham hayron, nega uni esladi? Peshonasi tirishdi-yu, lekin unda pul ko'pligini o'ylab, uni nega yodga olganini angladi. Qayerda o'qir edi? Yurfakda, degandi-ya.

Erta tongda institut eshigi yonida o'tirgan, ko'zlari olazarak Jamilani ko'rgan Mavlon shu kunga tahsinlar aytdi.

- Sendan yordam so'rab keldim, Mavlon. U kishining ahvoli og'ir. Menga pul kerak... qarzga, barini qaytaramiz, iltimos, qishloqdoshlik haqqi!

Mavlonning hafsalasi pir bo'ldi. U Jamila eridan aynib, o'zining panohiga kelganiga yuz foiz ishongandi.

- Yonimga yalinib kelasan, degandim-a? Aytganim bo'ldi! Lekin ovora bo'lma. Menga ering emas, sen keraksan!

- Nomard ekansan!

- Xohlasang... beraman qancha istasang. Ammo berarning olmog'i ham bor. Aytganimga ko'narmikinsan?

- Istaganingni so'ra!





Yonida esa... savlat to'kkancha domla turardi! Mavlon kuyovjo'ra. Hamma lol, hamma hayron. Bu sirdan faqat Mavlon taraf-u, Jamila taraf xabardor. Kelin-kuyov kattalardan oq fotiha olib, o'rindiqqacha cho'kishdi.

Mavlon gerdaygan yigit, lekin toshyurak, nomard emas. U sevadi, lekin sevganini yig'latmaydi. U ikki gul o'rtasiga tushadigan tikanak bo'lishdan ko'ra kuyib kul bo'lishni afzal biladi. U sevgani baxtidan kuladi. U Jamila Olim uchun har qanday shartga roziligini eshitgan kuni ularning muhabbatiga tan bergan! Mavlon tomondan kelganlar Olimning nomidan sovchilikka kelishgandi. Mana, bugun Jamila bilan tuzilgan "savdo"lari ham pishdi. Endi ularni sevinch ko'z yoshlari bilan shaharga kuzatib qolishadi...

Qishloqdagilar bu safar nima deyishga hayron. Oxir-oqibat hamma ikki yoshning muhabbatiga tan berishdan boshqa iloj topmadi...



...Jamila so'ralgan pulni olib bordi.

Bir oy o'tib Olim oyoqqa turdi. Yonida esa jilmayib turgan Jamilani emas, hamshirani ko'rdi. Uyga ruxsat tekkach, uyidan ham topolmadi xotinini. Qishloqdan surishtirdi... o'sha yerda ekan.

- Jamila qochoq esi kirib qaytib kelibdi! Domla o'laksa qilib urganmish... - deyishdi yarim qishloq.

- Unday emas, Jamila birov bilan yurib ketgan ekan, Olim to'rvasini tutqazibdi, - deyishdi qolgan yarim qishloq.

Ota-ona ko'ngli tosh emas. Oyoqlariga tiz cho'kkan qizlarini kechirishdi. Erta-indiniga sovchilar keldi. Mavlon tomondan. Uzoq tortishuvdan so'ng qiz taraf taslim bo'ldi. To'y harakati boshlandi...

Mavlon shaharga ketib, ikki kunda qaytib keldi. Yonida Olim... Ko'rganlar Mavlon Olimning ko'zini kuydirishga olib kelibdi-da, deb tomoshaning davomini kutishdi. To'y o'sha - qishloqdagi yagona to'yxonada bo'ldi. Kelin yastanib davraga chiqdi.



BAXTIYOR
AXTAMOV:

Otamga

Ota, o'g'ling birozgina g'o'r,
Nasihatsiz chiqqan ko'chaga.
Sovuradi kunduzlarin, ko'r,
Yemish bo'lar o'zi kechaga.

Ota, og'ir xurjinin osar,
Hali olis manziliga yo'l.
Goh tikanlar qo'ynida o'sar,
Goh qo'llarin siqar mingta qo'l.

Osmoni bor, oyi bor uning,
Tinglab ko'rgin na'ralarini.
Shifosini izlaydi o'g'ling,
Tog'ning, bog'ning yaralari bo'p.

Cho'kib qoldi o'g'ling yelkasi,
Dunyo g'amin ko'tarolmadi.
U ham edi ota erkasi,
Erkalikdan asar qolmadi.

Shu notavon o'g'lingmi, sening,
Qanotingda yurgan kerilib!
Ota, qaddim tolmadi mening,
Qoldi faqat boshim egilib.

Bilganmiding quruq-ho'limni,
O'n yetti yil yurdim avaylab.
Xudo mening yurar yo'limni,
Chizganmidi qildan ataylab?!

66 Osmonga qadalgan

Baxtiyor AXTAMOV
– 2005-yil 21-martda
Samarqand viloyati Urgut
tumanida tug'ilgan.
Hozirda Samarqand
davlat universtiteti
Denov tadbirkorlik va
pedagogika institutining
3-bosqich talabasi.



G'urur

Endi menga osmon ko'p yiroq,
Endi menga begona tushlar.
Borayapti sekin yuz burib,
Yuragimni cho'qigan qushlar.

Hayot bergan yo'limda ozod,
Ketayapman qo'limni siltab.
Yozilmagan baxtimdan mag'rur,
Shodliklarni olaman qistab.

Oq qog'ozga qo'yilgan nuqta,
Tugatibdi she'rimni qurg'ur.
Axir, endi tog'lardan baland,
Chumolidek mendagi g'urur!

Uzoq yo'l

Qara, haybat solar hayqiriq hamon,
Ko'nglim yuz bo'lakka bo'linar sassiz.
Xoxolab kuladi, kuladi armon,
Yo'l uzoq, baxt menga anchayin xasis.
Intilar, osmonga qadalgan nigoh,
Cho'k tushar tushimda "yohu"larim jim.
Yo'l uzoq
Ko'p tuzoq, tilandim panoh
(Sug'ormadi hechkim)...
Sevmadi hechkim...

Men bilan muntazam o'ynadi shamol,
Girdobga yo'ladim, bormay qay tomon.
Tishimga bostirib tilni, ehtimol,
Tumonat sukutdan saqlagayman jon.
Qo'limda bir hovuch g'amgin xotira,
Lipillab ko'zimda o'char alanga.
Bo'g'zimda xush yotir hushsiz qalandar,
O'ylarim o'yingga shaksiz talangan.

Cho'zilar xavotir, cho'zilar xayol,
Borliqning kaftida bo'laman tuproq.
Oy suzar bulutni hatlab bemajol,
Yomg'irlar labimda uyg'otar
titroq.

nigoh"

Yo'l uzoq...

Qarshimda devlar suzadi,
Mahkumman, sap-sariq kuz azasiga.
Ichimda kapalak qafas kezadi,
Bosh urib ko'ksimning darvozasiga.
Yopinchiq olmadim egik tanamga,
Qaniydi, bo'salar uyg'otsa hadik.
Dunyo, singayapti ruhim tanangga,
Lek, bahor qo'shig'in kuylasholmadik.
O'pkamga to'ldirib nikotin, tutun,
Xirillab, ovozim bo'g'ilmadi hech.
Mening dardim butun,
Vujudim butun,
Umrim yetisholmay qolayapti kech...

Taqdir

Bir kun ildamladim umrimdan yoki
Bir kun ortdamanmi?.. Visolingdan, o...
Ko'nglingda o'zgasi bor ekan toki,
Hatto, xayolingga qilolmam da'vo...

Hazin kuylari bor jo'shqin hayotning,
Qiyshiq qovurg'amda tipirchilar jon.
Bilmagan, sezmagani, chin yetti yotning,
Ohlari bir yon-u...ohlari bir yon.

Qop qora sochlarim bosgandir g'ubor,
Giryon ko'zlarimga sapchigaydir vaqt.
Qalamimda o'lim takror va takror,
Har ko'yga solinar, bu qandayin baxt!

Sen yurgan ko'chaning g'amnok kechasi,
Oy hurkib chiqadi, bosriqadi kun.
Tush – uyqu ichida yo'qotilgan ruh,
Tush – uyqu ichida yuribdi butun...

Qirq tarsaki urdim shum ehtirosiga,
Poyonsiz cho'zilgan keng dara, makon.
Haqqim yo'q nada so'z, na e'tirozga,
Og'riqning na boshi, na so'nggi ayon.

Sen hali bilmaysan, shudring ta'mini,
Sen hali bilmaysan, nadir muhabbat...
Men hali bilmayman, yashash jangini,
Bilmayman, kulishni, chor tomon g'urbat.

Yillarim sovrilar erib, ilvirab,
Yo'llarim gullashni bilmaydi, lekin.
Ertaning devori ketyapti nurab,
Bugunning o'tishi judayam sekin.

Qirq qora kipriging – qirqta sho'x kiyik,
Qirq tomon, qirq tog'ni etadilar zabt.
Eng baland cho'qqida, eng oxirgi yuk,
Mening yuragimga shamollar payvand.
Koinot bir qadam, zamin bir qadam,
Uchmoqlik shart emas bunda muallaq.
Mening taqdirimga bitmagan odam,
Na bo'lsa Haqdandir!
Na bo'lsa U haq!

Indoneziyaning G'arbiy Sumatra hududida o'tkaziladigan an'anaviy buqa poygasi paytida chavandozning hayajonli holati. 25-mart. Muallif: Vili Kurniavan/Reuters

Qor g'ozlari Pensilvaniya shtatining Kleinfeltersvill shahridagi Middle Creek yovvoyi tabiatni boshqarish hududida to'xtab, shimolga migratsiyasini davom ettirmoqda. 6-mart. Muallif: Robert Bukaty



Hindistonning Ahmedabad shahrida joylashgan ibodatxona hududida Holi bayrami nishonlanayotgan paytda dindorlar bir-birini rangli kukun bilan siylamoqda. 4-mart. Muallif: Amit Dave/Reuters

Fernandina Beach hududiga o'ta kuchli bo'ron yaqinlashmoqda. 8-mart. Muallif: Jeromi Giles/NurPhoto

ANI

tutib qol,

Chexiyadagi Pyatani atrofidagi go'zal manzara.

30-mart.

Muallif: Erik Fabian



Vashingtondagi Milliy savdo markazidagi suv havzasi bo'ylab gullagan gilos daraxtlari orasida sayr qilayotgan odamlar. 26-mart.

Muallif: Tom Brener/AP



Yaponiyalik Ukyo Shuto Janubiy Koreyaga qarshi Jahon beysbol klassik o'yini paytida uchib ketayotgan to'pga sakramoqda.

7-mart.

Muallif: Yuichi Yamazaki/AFP



Pokistonning Lahor shahridagi temir yo'l stantsiyasida yo'lovchi Iyd al-Fitr bayrami oldidan o'z ona shahriga qaytayotganida vagonga chiqish uchun derazadan foydalanmoqda.

18-mart.

Muallif: Muhsin Rizo/Reuters



yashab o't lahzani...

Suriyaning sharqidagi Qamishli chekkasidagi ochiq maydonga tushib, portlamay golgan raketa atrofida o'ynayotgan bolalar/ 5-mart. Muallif: Delil Soleman



Shia musulmonlari Hindiston nazoratidagi Kashmirning Srinagar shahrida Eron oliy rahbari oyatulloh Ali Xomana'ining o'ldirilishiga qarshi sham yorug'ida norozilik namoyishi o'tkazmoqda. 4-mart. Muallif: Muxtor Xon



Bayrutning qirg'oqbo'yi hududidagi avtoturargohdagi chodirda chaqaloq uxlayapti. 22-mart. Livan sog'liqni saqlash vazirligining ma'lum qilishicha, Eron urushi boshlanganidan shu kunga qadar Isroil Livanda mingdan ortiq odamni o'ldirgan. Muallif: Ibrohim Amro/AP



Ukrainaning Kiev viloyati, Brovari shahrida Rossiya raketa va dron hujumi natijasida yonayotgan uy yonidan o'tayotgan ayol. 14-mart. Muallif: Yan Dobronosov/ Reuters



G'azo sektorining janubidagi Xon Yunusda ikki yillik Isroil hujumi paytida ko'chirilgan aholi boshpana topgan chodir lagerida ko'chirilgan falastinliklar qum bo'roni paytida chodirni ta'mirlashga harakat qilmoqda. 14-mart. Muallif: Ramazon Obid/Reuters

Tehron shahrida politsiya bo'limiga qilingan hujumdan keyin qurbonlarni olib ketayotgan odamlar yonidan yugurib o'tayotgan ayol. 3-mart.
Muallif: Majid Xoni/ISNA



Eronning Minob shahridagi boshlang'ich maktabga qilingan hujumda halok bo'lgan bolalar uchun qazilgan qabrlar. Tergovchilarning so'zlariga ko'ra, hujumda kamida 165 kishi, asosan bolalar halok bo'lgan, hujum Amerikaning Tomahawk raketasi bilan amalga oshirilgani aytilgan. 3-mart.
Manba: Eron matbuoti markazi



Marziya Rezaei Tehrondagi Behesht-e Zahra qabristonida havo hujumida halok bo'lgan o'g'li Erfanning qabri yonida chuqur qayg'u botib turibdi. 16-mart.
Muallif: Alaa Al-Marjani/Reuters


Ikki yil davom etgan Isroil hujumi oqibatida uyidan ko'chishga majbur bo'lgan falastinlik bolalar Nuseirat hududidagi chodir lagerida, vayron bo'lgan avtomobil qoldiqlari ustida o'ynamoqda. 25-mart.
Muallif: Mahmud Iso/Reuters



Kobul shahrida Tolibon Pokiston havo hujumi natijasida vayron bo'lgan giyohvand moddalarni reabilitatsiya qilish shifoxonasi vayronalari ustida turgan yigit. 17-mart.
Muallif: Sayid Hasib/Reuters



STIV



JOBBS:

“XAYOLGA OSHNO BO‘L, XATODAN QO‘RQMA”

S

tiv Jobs (1955-2011) hayotlik davridayoq mashhurlikning eng yuqori cho‘qqisini zabt etgan dunyoning noyob shaxslaridan biri hisoblanadi. U bu martabaga nafaqat axborot texnologiyalari va biznes olamidagi muvaffaqiyati, balki g‘ayritabiiy iste‘dodi sharofati bilan erishgan. Uni dunyoni o‘zgartira olgan inson, uzoqni ko‘ra oluvchi daho, uchqur xayol sohibi, buning ustiga o‘z davrining ovozigina aylangan nodir notiqlardan biri deb ataydilar. Kompyuterni u o‘ylab topgan emas, ammo u mahorat bilan g‘oyani haqiqatga aylantira olgan inson edi.

Stiv Jobs 1975-yili “Apple Computer” korxonasi asos soladi. Qo‘lda mahsulot ishlab chiqaruvchi torgina, derazasiz garajda ustaxona sifatida ish boshlagan kompaniya o‘n yildan keyin axborot texnologiyalari sohasida jahon miqyosida tan olingan, ixtiroolari dunyoni boshqaradigan yetakchi kompaniyaga aylanadi.

Stiv Jobs Stenford universiteti talabalari huzurida so‘zlagan g‘aroyib nutqida maqsad va amal haqida hikoya qiladi. Bu nutqda notiqlik va drama san‘atining barcha qoidalariga rioya qilingan.

Bu nutq zamonamizning eng ilhombaraxsh va kishini maqsad sari dadil odimlashga undovchi nutqlaridan biri sifatida tan olingan.

Stenford universiteti, 2005-yil
12-iyun

Bugun dunyoning eng nufuzli universitetlaridan biridagi diplom topshirish tantanasida qatnashish men uchun ulkan sharaf. Kamina oliy ta‘lim muassasasini bitirish nasib qilmagan. To‘g‘risini aytсам, hozir ana shu baxtga har qachongidan ham yaqindekman. Sizga o‘z hayotimdan uchta hikoya aytib bermoqchiman. Bor-yo‘g‘i – shu. Hayron bo‘ladigan joyi yo‘q. Uchta oddiy hikoya.

To‘yib
ovqatlanish
uchun
ibodatxonaga
borardim

Birinchi hikoyam nuqtalarni birlashtirish haqida.

Men Rid-kollejda olti oy tahsil olgach, o‘qishni tashladim, ammo kollejni uzil-kesil tark etguninga qadar yana bir yarim yilcha borib-kelib yurdim.

Xo‘sh, nega men kollejni tashlagan edim?

Hammasi men tug‘ilmasim-danoq boshlangan. Biologik onam – erga tegmagan yosh aspirant – meni birorta o‘ziga to‘q oilaga farzandlikka berishga qaror qiladi. Yana uning talabiga ko‘ra, meni farzandlikka oluvchilar oliy ma‘lumotli bo‘lishi kerak edi. Shunday oila topilgan ham. Kelishuvga binoan tug‘ilganim zahoti bir huquqshunos oilasi meni farzandlikka olishi lozim ekan. Biroq dunyoga kelganimdan so‘ng ular qizaloq asrab olmoqchi bo‘lganini aytib, mendan voz kechishibdi. Tug‘ruqxonadagilar yarim tunda bola asrab olishni xohlovchilar ro‘yxatida turgan boshqa oilaga qo‘ng‘iroq qiladi: “Bizda kutilmagan o‘g‘il chaqaloq tug‘ildi. Olasizmi?”. Ular jon-dili bilan rozi bo‘ladi. Keyinchalik onam meni asrab olmoqchi bo‘lgan oiladagi ayolning kollejni, erkak esa o‘rta maktabni ham tugatmagani bilib qolgach, chaqalog‘ini farzandlikka berishga rozilik xatini imzolashdan bosh tortadi. Bir necha oy o‘tib, kaminani asrab olmoqchi bo‘lgan ota-onam meni, albatta, kollejda o‘qitishlarini va‘da qilgandan so‘nggina u shashtidan tushadi.

Shunday qilib, o'n yetti yildan so'ng men kollejga bordim. Ammo oqibatini o'ylamasdan Stanford kabi qimmat kollejni tanlab qo'ygan edim. Bu dargohda o'qishda davom etsam, oliy ma'lumoti bo'lmagan, odmigina yashagan ota-onamning tejab-tergab yiqqan barcha mablag'i tahsil pulini to'lashga ketgan bo'lar edi. Shuning uchun ularni asrash niyatida o'qishni tashlashga qaror qildim. O'qishni tashlaganimdan buyon o'zimni qiziqitirmagan narsalar bilan shug'ullanishni ham yig'ishtirdim va o'zimga qiziqarli tuyulgan narsalar bilan mashg'ul bo'ldim.

Ahvolim unchalik yaxshimasdi. Yotoqxonada xonam bo'lmaganidan jo'ralarimning xonalarida polda yotib yurardim, yegulikka pul topish uchun kola shishalarini yig'ib, 5 sentdan topshirardim, jilla qursa, haftada bir marta to'yib ovqatlanish maqsadida yakshanba kunlari kechqurun shaharning u chetidan bu chetigacha yetti mil yo'l bosib, krishnaviylar ibodatxonasiga borardim. Bu menga yoqardi. Men o'ta qiziquvchanligim va ichki sezgim tufayli boshimdan o'tkazgan ko'p narsalar keyinchalik juda foydali bo'lib chiqdi. Misol keltirishga ijozat bering.




“Apple”dan quvilishim hayotimdagi eng yaxshi voqea

Menimcha, o'sha vaqtlar Rid-kollej mamlakatdagi kalligrafiya eng yaxshi o'rgatiladigan muassasa edi. Butun kampusda barcha plakatlar, barcha surilma qutilardagi tamg'alarning hammasi husnixat bilan qo'lda yozilardi. O'qishni tashlaganim uchun darslardan chetlatilgan edim. Shu bois husnixatni o'rganish maqsadida kalligrafiya kursiga yozildim. U yerda men kertikli va kertihsiz shriftlar to'plami, har xil kombinatsiyalarda harflar o'rtasidagi masofaning o'zgarishi, ajoyib tipografika asosi nima ekani haqida bilib oldim. U judayam nafisligi bilan kishini lol qoldirardi. Undan tarix nafasi ufurib turardi. Bu shunchalar ajoyib ediki, ta'rifiqa til ojizlik qilardi va men kalligrafiyaga maftun bo'lgan edim.

O'rganganlarimni bir kun kelib amalda qo'llayman degan fikr xayolimga ham kelmagan. Ammo oradan o'n yil o'tib, biz birinchi Makintoshni ishlab chiqqanimizda, o'rganganlarim menga qo'l keldi. Ularning barchasini Makni ishlab chiqishda qo'lladik. U chiroyli tipografiyali birinchi kompyuterga aylandi. Agar kollejdagı o'sha kursga yozilish fikri miyamga kelmaganida Makda hech qachon bir nechta shriftlar to'plami yoki proporsional shriftlar (harflarining eni har xil bo'lgan shrift, harflarining eni bir xil bo'lgan shriftlardan, masalan, yozuv mashinkalari shriftlaridan farq qiladi) bo'lmas edi. Yana Windows uchun ularni Makdan shunchaki ko'chirib olishganini hisobga oladigan bo'lsak, kompyuterda ularning mavjudligi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Agar men o'qishni tashlamaganimda o'sha kalligrafiya kursiga hech qachon qatnamagan bo'lardim, kompyuterlar esa shunday ajoyib tipografikasiz qolishi tayin edi. Albatta, kollejda ekanimda bu nuqtalarni birlashtirishning mutlaqo iloji yo'q edi. Ammo oradan o'n yil o'tgach, bu nuqtalarning bir-biriga bog'liqligi kunday ravshan bo'lib qoldi.

Qaytaraman: siz kelajakka qarab turib nuqtalarni aslo birlashtira olmaysiz; faqat o'tmishga nazar solib ularni birlashtirish mumkin. Shunday ekan, bu nuqtalar sizning kelajagingizda biron-bir tarzda bir-biri bilan birlashishiga astoydil ishonong. O'zingizning fe'l-atvoringizga, taqdiringizga, hayotingizga, nasibangizga ishonong. Bunday yondashuv menga biror marta pand bermagan va hayotimni butkul o'zgartirib yuborgan.





Ikkinchi hikoyam muhabbat va yo'qotishlar haqida. Mening omadim keldi: darhol o'zimga yoqadigan ish topdim. Yigirma yasharligimda Voz (Stiv Voznyak – Jobsning maktabdosh do'sti, ular birgalikda "Apple" kompaniyasiga asos solishgan) bilan birga ota-onamning garajida "Apple"ga asos soldik. Astoydil ishladik va o'n yildan so'ng "Apple" garajdagi ikki kishidan to'rt ming xodim ishlaydigan, ikki milliard dollarlik kompaniyaga aylandi. Men bu paytda o'ttizga kirgandim. Bir yil burun biz ijodimizning eng yaxshi mahsuli – Makintoshni ishlab chiqardik. Keyin esa meni ishdan bo'shatishdi. Ammo qanday qilib kompaniya asoschisini undan haydash mumkin? Nima ham derdik.

Buning sababi quyidagicha: "Apple" yiriklashdi va mening taklifim bilan kompaniyani men bilan birga boshqarish salohiyatiga ega bo'lgan bir kishini ishga yolladik. Dastlabki kezlarda

ishlarimiz yaxshi bordi. Lekin keyinchalik u bilan kelajak haqidagi qarashlarimizda tafovutlar yuzaga kela boshladi va nihoyat biz janjallashib qoldik. Bu mojaroda direktorlar kengashi uning yonini oldi. Shu tariqa o'ttiz yoshimda men ishdan bo'shatildim, boz ustiga hammaning ko'z o'ngida. Butun ongli hayotim mobaynida intilgan narsamdan ayrilib, hafsalam pir bo'ldi.

Bir necha oy nima qilishni bilmay yurdim. Menga berilgan estafeta tayoqchasini qo'ldan tushirib yuborib tadbirkorlarning ilg'or avlodining ishonchini oqlay olmaganimni his qilib ezilardim. Devid Pakkard va Bob Noys ("Hewlett-Packard" va "Intel" kompaniyalarining asoschilari) bilan uchrashib, yo'l qo'ygan xatom uchun uzr so'ramoqqa chog'landim. Men hammaning ko'z o'ngida muvaffaqiyatsizlikka uchrab, bu dahshat vodiysidan qanday qilib chiqib ketish haqida o'ylardim. Ammo ruhimda nimalardir asta-sekin uyg'ona boshlagan edi – hamon nima ishni yaxshi ko'rsam o'shani qilardim. "Apple"da yuz bergan voqea meni o'zgartira olmagan edi. Ko'kragimdan itarishsa ham men hanuz uni yaxshi ko'rardim. Shu bois hammasini boshidan boshlashga qaror qildim.

O'shanda men buni sezmagam ekanman, "Apple"dan quvilishim hayotimda yuz bergan eng yaxshi voqea bo'lib chiqdi. G'oliblikning mas'uliyati yelkasidan bosib turgan odamdan biror nimaga ishonchi unchalik qat'iy bo'lmagan beg'am boshlovchiga aylandim. Zero, o'shanda hayotimdagi ijodim eng gullagan davrlardan biriga qadam qo'yish uchun ishdan ozod bo'lgan ekanman.

Keyingi besh yilda shaxsan o'zim "NeXT" deb atagan kompaniyaga, "Pixar" deb atagan yana bir kompaniyaga asos soldim, ajoyib bir ayolni sevib unga uylandim. "Pixar" tarixda birinchi bo'lib kompyuterda ishlangan animatsion film – "O'yinchoqlar tarixi"ni yaratdi va bugungi kunda dunyodagi eng muvaffaqiyatli animatsiya studiyasi hisoblanadi. Meni hayron qoldirib, "Apple" "NeXT"ni sotib oldi va men "Apple"ga qaytdim, "NeXT"da ishlab chiqilgan texnologiya esa "Apple"ning bugungi yuksalishining negiziga aylandi. Loren ikkalamizning oilamizga esa ko'pchilik havas qiladi.



**"Yaqinlar
bilan
hayrlashib
oling"
deyishdi**

Men shunga aminmanki, agar “Apple”dan quvilmaganimda bularning hech biri yuz bermas edi. Bu juda achchiq, ammo kasalning shifo topishi uchun zarur boʻlgan bir dori edi. Baʼzan hayot boshga toʻqmoq bilan uradi. Noumid boʻlmang. Men aminmanki, yagona suyanchim oʻz ishimga muhabbatim boʻlgan. Nimani yaxshi koʻrsang shuni izlashing kerak. Bu ishga ham, munosabatlarga ham taalluqli. Ish hayotining katta qismini band etishi turgan gap, undan rohatlanishga yordam beruvchi yagona tuygʻu juda katta ish qilayotganingga ishonishdir. Buyuk ishni amalga oshirish uchun esa uni sevish kerak. Agar siz uni hali topmagan boʻlsangiz, izlashda davom eting. Taslim boʻlmang. Yurakka taalluqli hamma narsa singari siz bu ishni qachon topishingizni koʻnglingiz sezadi va barcha buyuk tuygʻular kabi yillar oʻtishi bilan bu sevgi faqat kuchayadi. Shunday ekan, uni topmaguningizcha izlashda davom eting. Taslim boʻlmang.

Uchinchi hikoyam oʻlim haqida.


Oʻn yetti yoshimda bir hikmat oʻqigandim, mazmuni taxminan shunday edi: “Agar har kunni xuddi oxirgi kuningday yashasang, bir kuni albatta haq boʻlib chiqasan”. U menga qattiq taʼsir qildi va shundan buyon, mana oʻttiz uch yildirki, har kuni ertalab oynaga qarab turib oʻzimdand soʻrayman: “Agar bugun umrimning oxirgi kuni boʻlsa, bugunga rejalashtirgan ishlarim bilan shugʻullanishni xohlardim?”. Mabodo juda koʻp kunlar

**Oʻlim tabiat
oʻylab
topgan
eng yaxshi
narsa**

oʻlimni eslatish – qopqonga – yoʻqotadigan narsalarning borligi haqidagi fikrlar taʼsiriga tushmaslik borasida men bilgan usullarning eng yaxshisidir. Sen rostdan ham yalangʻoch-u yalangoyoqsan va qalbingga quloq solmaslikka hech bir sabab yoʻq.

Bir yil burun mening saraton kasalligiga chalinganimni aniqlashdi. Ertalab soat yetti yarimda oshqozonosti bezimdagi oʻsma yaqqol koʻrinib turgan suratni oldim. Bungacha men hatto oshqozonosti bezi nimaligini ham bilmasdim. Vrachlar bu saratonning tuzalmaydigan turi ekanini, uzogʻi bilan olti oycha umrim qolganini aytishdi. Vrachim menga uyga borishimni va ishlarimni tartibga solishni boshlashimni maslahat berdi. Bu doʻxtirlarning taʼbirida “oʻlishga tayyorgarlik koʻravering” degan maʼnoni bildiradi. Yaʼni bolalaringizga aytmoqchi boʻlgan gaplaringizni aytib qoling, oilangiz farovonligi uchun qila olishingiz mumkin boʻlgan barcha ishni bajarganingizga ishonch hosil qiling, hamma bilan xayrlashib qoling deganidir.

Bir kun vaqtim shu tashxis bilan oʻtdi. Kechqurun menga biopsiya qilishdi: tomogʻimga endoskop tiqishdi, oshqozon va ichaklar orqali oshqozonosti beziga olib borishdi, unga igna tiqib, oʻsmadan



mobaynida oʻzimga-oʻzim ketma-ket “yoʻq” deb javob bersam, demak nimanidir oʻzgartirishim kerakligini angalayman.

Oʻzimga oʻzim umrning oʻtkinchiligini, yaqinda oʻlishim mumkinligini eslatishim har doim ulkan hayotiy qarorlar qabul qilishimga yordam bergan eng muhim xususiyatlardan biridir. Chunki boshqa hamma narsa – birovlarining mish-mishlari, magʻrurlik, muvaffaqiyatsizlikka uchrash yoki sharmanda boʻlishdan qoʻrqish hissi – oʻlim oldida bularning barchasi xira tortib qayoqqadir gʻoyib boʻladi va haqiqatan nima zarur boʻlsa, oʻsha qoladi. Oʻzingga oʻzing



Tavakkalchiligingizcha qoling!

bir nechta hujayra olishdi. Men narkozda edim, ammo jara-yonni kuzatib turgan xotinimning aytishicha, hujayralarni mikroskopga qo'yib ko'rgan vrachlar g'ala-g'ovur qilib qolishibdi. Chunki, ma'lum bo'lishicha, mendagi kasallik oshqozonosti bezi saratonining jarrohlik yo'li bilan davolash mumkin bo'lgan kam uchraydigan turi ekan. Meni operatsiya qilishdi, hozir otdayman.

O'shanda men ajal ostonasiga juda ham yaqin borganman. Shu bois "Tabib tabib emas, boshidan o'tkazgan tabib" deganlariday sizga bir gapni qat'iy ishonch bilan aytmoqchiman:

Hech kim o'lishni istamaydi, hatto jannatga tushishni orzu qiluvchilar ham. Lekin baribir o'lim bilan yuzma-yuz kelish hammamizning boshimizda bor. Hozirgacha hech kim undan qochib qutulgan emas. O'zi shunday bo'lishi ham kerak. Chunki O'lim tabiat o'ylab topgan narsalarning eng yaxshisi shekilli. Hayot uchun u o'zgarishlar manbaidir. Yangiga yo'l berish uchun eski o'chirib tashlanadi. Hozirgi vaziyatda siz yangisiz, biroq hademay ajoyib kunlarning birida siz ham eskiga aylanasiz va o'chirib tashlanasiz. Bo'rttirib yuborgan bo'lsam ma'zur tuting, ammo bu bor gap.

Sizning vaqtingiz chegaralangan. Shuning uchun uni bekorga sarflamang. Dogmalarning qarmog'iga ilinmang - boshqalarning fikri bilan yashamang. Begona fikrlar shovqini o'zingizning ichki ovozingizni bosib ketishiga yo'l qo'ymang. Eng muhimi, o'z qalbingiz va ichki sezgingiz ko'rsatgan yo'ldan yurishga o'zingizda kuch topa oling. Aslida kim bo'lishni xohlayotganingiz ularga hayratangiz tarzda ma'lumdird. Qolgan hammasi ikkinchi darajali.

O'smirlik chog'imda bizning avlodning eng sevimli nashrlaridan biri hisoblangan "Sayyoramiz katalogi" chop qilinar edi. Styuart Brand degan yigit uni bu yerdan uncha uzoq bo'lmagan joyda - Menlo-Parkda chiqarar, katalog sahifalarini o'ziga xos obrazli uslubda tayyorlar edi. Bu 1960-yillarning oxiridagi gaplar, u vaqtlar kompyuter, printer, nusxa ko'chirish apparatlari yo'q edi, hamma ish yozuv mashinkasi, qaychi va polaroidlar yordamida bajarilar edi. Ushbu katalog noyob vositalar va buyuk fikrlarga to'la mafkurasini bilan "Google"ning hozirgi hamma foydalana oladigan variantiga o'xshab ketardi. E'tibor bering, "Google" o'ttiz besh yildan keyin paydo bo'lgan.

Styuart va uning jamoasi "Sayyoramiz katalogi"ning bir nechta sonini chiqardi, g'oya batamom yuzaga chiqarib bo'lingach, 1970-yil o'rtalarida uning oxirgi sonini chop etishdi (o'shanda men sizning yoshingizda edim). Oxirgi son muqovasining orqa tarafida ertalabki shossening surati berilgan bo'lib, u agar siz sarguzashtlar ishqibozi bo'lsangiz, avtostop yordamida sayohat qilishingiz mumkin bo'lgan shosselardan biri edi. Surat tagiga "Ishtiyoqmandligingizcha qoling! Tavakkalchiligingizcha qoling!" deb yozilgan edi. Bu ularning xayrlashuv nomasi edi. "Ishtiyoqmandligingizcha qoling. Tavakkalchiligingizcha qoling". Shaxsan men o'zimga har doim shuni tilaganman. Hozir universitetni tugatib, yangi hayot ostonasida turganingizda, sizga ham tilagim shu:

Ishtiyoqmandligingizcha qoling. Tavakkalchiligingizcha qoling.

Hammangizga katta rahmat.

Hasan KARVONLI tarjimasi

ANVAR OBIDJON



G'ILAY SICHQON

(HAJVIYA)

“**Xo’sh,** sizni nima bezovta qilyapti?” – degan odatiy savolga bemor: “Sichqon!” – deya g’ayritabiiy javob qaytargach, Habib tabibning hayratdan kipriklari kerilib, qulog’iga shapalog’ini tutdi:

– A, labbay?!

– Xo’jayinimni sichqon tinch qo’ymayapti, sichqon! – tinkasi qurib, tili gapirishga ham qovushmayotgan erining o’rniga munglanib so’z qotdi Chamberaxxon. – Ana, qarang, chuchkurganda derazalarni zirqiratvoradigan odam jarangliroq yo’talishgayam yaramay qoldi.

Dahlizdagi taxta karavotda so’ligan palakday shalpayib yotgan Vosvosxo’ja xotiniga o’qrayib ko’z tashladi.

Yalmog’iz! Aslida, bariga shu aybdor! Uyimiz sichqonbozorga aylanib ketdi deb javrayverdi, javrayverdi, oxiri taxtamushuk topishga to’g’ri keldi. Taxtamushukka dastlabki kuniyoq qorindor bir sichqon ilindi...

Ha, ilinmay o’lgur-a! O’shandan beri Vovosxo’jada orom yo’q. Sal mudradi deguncha, allaqanday g’ilay sichqon uning ustiga bostirib kelib: “Homilali xotinimni nima qipqo’yding, chuvak?” – deya ko’zini yondirib g’ijinadi. Har g’ijinganida, tishlarining orasidan “chars-churs” etib uchqun sachraydi.



– Keyin qo‘lidagi pichoqning tugmasini bosib, “shiq” etkazib ochadi, kallamni orqaga qayiradi, – do‘xtirga sarosima-la boqib arzlandi Vosvosxo‘ja.
– Jallodlik manavinaqa bo‘ladi, it, deb bo‘ynimga pichoq tortganida, dodlab uyg‘onib ketaman. Boshqatdan ko‘zim ilinsa, yana o‘sha g‘ilay sichqon, yana o‘sha “shiq” etib ochiladigan pichoq...

Vosvosxo‘ja arazchi boladek yig‘lamsirab, lab burishtirdi. Bu ahvolni ko‘rib, Habib tabibning beixtiyor kulgisi qistadi:

– Xex-xex- xe... Vahimaning uyasi bo‘pketing-e!
– Tanasi boshqa dard bilmas deganlari shu-da,
– jahllandi Vosvosxo‘ja. – Men nima g‘amda yotibman-u...

– Bo‘pti, bo‘pti, – unga tasalli bergan bo‘ldi Habib tabib. – Shunchalik yurak oldirganakansiz, harqalay, o‘sha g‘ilayni murosaga chaqirib ko‘rish kerakmidi-i...

Vosvosxo‘ja: “Kelishishga urinib ko‘rdim”, deya gap boshladi-yu, tuyqus to‘xtalib, xotiniga yuzlandi: “Bor, chiqib tur!”

– Men bor-yo‘g‘i taxtamushuk opkeldim xolos, dedim unga, – xotini chiqib ketgach, so‘zida davom etdi Vosvosxo‘ja. – Taxtamushuk opkeling deb tiqilinch qilganam, xo‘rakli taxtamushukni tuyasandiqning tagiga qo‘yganam xotinim, ana shu karilloq bilan hisob-kitob qilaver-da, akasi, dedim.

– Sichqon nima dedi, sichqon?

Vosvosxo‘ja bu gal yig‘lab yubordi:

– Yix-yix-yix... Ha nomard, dedi, aybingni kelib-kelib xotin kishiga ag‘darasanmi, dedi. Oldin so‘ymasamam, mana endi so‘yaman deb, yana kekir-

dagimga yopishdi. Bo‘ynimga pichoqni teskari ishqalab, ataylabdan qiynadi. Haromzoda! Yix-yix-yix.

– O‘zingizni bosing, Vosvosxo‘ja, o‘zingizni bosing, – bemorning yelkasini siypaladi Habib tabib.
– Yigirma besh yildan buyon qishloq do‘xtiriman, lekin bunaqa chalkash kasallikka birinchi duch kelishim. Hozircha tinchlantiruvchi ukoldan berib turaylik-chi. U yog‘ini keyin ko‘rarmiz...

Tinchlantiruvchi ukoli zap mo‘jiza ekan-da! Mana, ikki kundirki, Vosvosxo‘janing joni halovatda. Hamma odamga o‘xshab, ish qilgisi kelganda ish qiladi, dam olgisi kelganda, xohlasa choyxonaga chiqib, xohlasa hozirgidek hovlidagi so‘riga yonboshlab, hordiq chiqaradi.


Ko‘chadan kimdir chaqirdi-yu, Vosvosxo‘ja bolishdan biqin uzib, ovoz qildi:

– Ho‘v! Kiravering!

Hovliga Habib tabib kirib keldi. Garangsiragan qiyofada salomlashganicha so‘riga chiqdi. Horg‘inlik bilan o‘tirib, yuziga chala-chulpa fotiha tortdi.

– Ming rahmat sizga, Habib tabib, – dasturxon-dagi kulchani sindirayotib, minnatdorchilik bildirdi Vosvosxo‘ja. – O‘sha bitta ukolingiz bilanoq battol g‘ilay tushimdan g‘oyib bo‘ldi-qoldi.

Habib tabib Vosvosxo‘jaga zimdan xo‘mrayib: “Qayoqqa g‘oyib bo‘ldiyki-i-n, deb o‘ylab ko‘rmadilarmi”, deya pichinglagach, sobiq bemor: “U yog‘i bilan ishim nima? Balki yerga kirgandir, balki osmonga uchgandir”, deb parvosiz iljaydi.



- Afsuski, yergayam kirgani yo'q, osmongayam uchgani yo'q, - ho'ngrak otishga chog'langan turxatda ming'irladi Habib tabib. - O'sha g'ilay sichqon endi mening kallamga ko'chib o'tib, ikki kundan beri miyamni g'ajiyapti. Andakkina mizg'isam, tamom, xomilali xotimni o'ldirgan yirtqichni do'pposlash o'rniga, davolab yuribsanmi, deb ko'zimga barmoq niqtaydi. Keyin meni yalang'och qilib, karavotga boylaydi-yu, pintsetda "g'ir-r" etkizib qornimni yorvoradi. Narkozsiz-a!

Choy damlab kelib, uni so'rining suyanchig'i osha eriga uzatayotgan Chambaraxxon bu gapdan seskanib ketdi:

- Voy o'lmasam!

Vosvosxo'ja Habib tabibga darddoshlik bilan tikildi:

- Obbo-o, sizgayam qiyin bo'пти-ku, Habib tabib. Ko'mak beray desam, qo'limdan kelmasa...

- Qo'lingizdan keladi, Vosvosxo'ja, qo'lingizdan keladi, - negadir yeng shimarib turib so'z qotdi Habib tabib. - Ozgina chidab bersangiz bo'ldi.

- Nimaga chidab berishim kerak?

- Kaltakka. Aytdim-ku, g'ilay sichqon nuqul sizni do'pposlashimni talab qilyapti. To talabini bajarmagunimcha, tinchimni topolmasligim aniq. Qani, so'ridan tushaylik.

Habib tabib, ko'zlari quturgan buqanikidek qontalash bo'lib, joyidan qo'zg'aldi. Vosvosxo'jaga davaralanganicha, uni so'ridan quvib tusha boshladi. Chambaraxxon avvaliga hay-haylab ularni ajratishga urindi. Bu ish qo'lidan kelmasligini anglagach, pizillab ko'chaga chiqib ketdi-yu, zum o'tmay, qo'shnisi Jabbor melisani ortidan ergashtirib qaytdi.

Jabbor melisa so'ri atrofida quvdi-quvdi bo'lib turganlarni tezda tartibga keltirib, mashmashaning sababini surishtirdi. Sababini eshitib, qorin quchib kula ketdi...

Keyingi uch kun davomida kulgining nimaligini tugalay unuta boshlagan Jabbor melisa hovlisidan chiqib kelib, ko'cha supurib turgan Chambaraxxonni ko'rdi. Uyqusizlikdan shilpiqlangan ko'zlarini ro'molchada artayotib, Chambaraxxondan eri uyda bor-yo'qligini surishtirayotgani-



da, Vosvosxo'janing o'zi qo'lida xarajat bilan bozordan kelib qoldi. Vosvosxo'ja qo'shni bilan ko'rishayotib, uning buzuq turqiga hadik-sirab ko'z yugurtdi:

- Ha, Jabborvoy, tinchlikmi?

- Uncha tinchlikmas, - sarxush odamdek qovoqlarini og'ir ochib-yumdi Jabbor melisa. - Sizni qamoqqa olmasak bo'lmaydi shekilli.

Vosvosxo'ja turgan joyida tarashaga aylanib, tili kalimaga kelmay qoldi. Chambaraxxon esa supurgini yerga otib, erini o'dag'aylay ketdi:

- Sizga aytuvdim-a, dadasi, G'ulom qallobning kalishlarini sotishga aralashmang deb. Bilardingiz, chetdan o'g'rincha mol opkelib, ilgariyam qo'lga tushganidi.

Vosvosxo'ja: "Og'zingni yop!" - deb xotining unini o'chirgach, Jabbor melisaga talvasalanib yuzlandi:

- Buning gapiga parvo qilmang, har payshanbada miyasi chalg'ib turadi. Men hech qanaqa kalishni ko'rganim yo'q! G'ulom degan zotniyam tanimayman! Buni hech kim bo'ynimga qo'yolmaydi!

Bu gapdan Jabbor melisaning zardasi qaynadi:



- E, qanaqa odamsiz? Qayoqdagi kalish bilan G'ulomni oraga suqib nima qilasiz? Sizni boshqa masalada qamashga to'g'ri kelyapti. Vosvosxo'janing yuziga qon yugurib, keskin o'zini o'ngladi va: "Agar bu ishga kalishniyam, G'ulomniyam aloqasi bo'lmasa, unda nima gunohimiz borakan, uka?" - deya gerdayib qosh suzdi.

Shu savol yangradi-yu, masala yana kemiruvchi maxluqqa borib taqaldi. Jabbor melisaning aytishicha, o'sha g'ilay sichqon endi uning tushiga kirib, bo'g'oz xotinimning qotilini nimaga qamoqqa olmayapsan, deb zug'um qila boshlabdi. Jinday uyqu



elitsayoq, "g'ilay ekstremist" uning bo'yniga tosh boylarmish-da, "Kelishuvchanlikning jazosi mana shu!" - deya daryoga itarib yuborarmish.

- Kecha majlisdayam pinakka ketib, to'satdan baqirib yuboribman, - kiprigida yosh yiltirab saslandi Jabbor melisa. - Boshlig'imiz meni ishdan haydavorishiga oz qoldi. Gap shu, Vosvos aka, sizni loaqal biror kun qamab qo'ymasam, g'ilaydan qutulishim qiyin. Qo'rqmang, hibsxonaga yumshoq divan qo'ydirib beraman.

Chambarakxon biqiniga qo'l tirab, Jabbor melisaga dag'dag'a qildi:

- Ho', inim! Og'zingizga qarab gapiring! Xo'sh, sichqon o'ldirganni qamash qaysi qonunda borakan?

Janjal endigina avjlanib borayotgan chog'da, Vosvosxo'janing devor qo'shnisi Farmonqul oqsoqol ko'chaga chiqib kelib, o'zini o'rtaga ko'ndalang qildi.

U tomon ham, bu tomon ham fikrini ma'qullatishga uringani sayin, oqsoqolning og'zi tobora tirjaya bordi. Oxiri o'zini qahqahadan bazo'r tiyib, dashnom berishga o'tdi:

- Bas qilinglar! Birov eshitsa, hammangni jinniga chiqaradi-ya! Yo tavba! Mahalla oqsoqoliga, kelib-kelib, qandaydir g'ilay sichqondan arz qilasanlarmi?

- Sichqonni pisandsiz tilga olganingiz chakki bo'ldi,- Farmonqul oqsoqolga achinib boqdi Jabbor melisa. - Joningizga jabr qipqo'yingiz-da, otaxon...

Jabbor melisaning xavotiri o'rinni ekanligi ertasi kuni ertalabdayoq o'z isbotini topdi. Artizonda yuzini yuvib turgan Vosvosxo'ja qo'shni devor ortidan yangragan na'rani eshitib, bir cho'chib tushdi.

- Vosvosxo'ja-a!!!

Vosvosxo'ja o'zini daraxtning panasiga olib ulgurmasidan, devor ustida Farmonqul oqsoqolning boshi balqidi. Boshdagi ko'z tevarakka ola-kula jalanglab, og'zidan hayqiriq tosha boshladi:

- Vosvosxo'ja deyapman! Qayoqdasan, hey? Jimgina tirikchilik qilib yurgan sichqonga tegib nima qilarding, qiztaloqvachcha?!

Vosvosxo'ja daraxtning panasida shumshayib turarkan, ho'l yuziga sekingina sochiq bosayotib, o'zicha g'udrandi:

- Doim shunaqa! Biron-bir balo-qazoning daragini aytasang, seni vahimachiga chiqarib, mazaxlashadi. O'zlarining boshiga tushsa, shunaqangi dodlashadi-ki, shunaqangi dodlashadi-iki!.. Ha odamlar-a, odamlar...



**DIMIASH
OUDAYBERGEN:**

**JAHON
SAHNA
SIDAGI
HODI
SA**





Baʼzan inson hayotida shunday lahzalar boʻladiki, u birinchi marta eshitgan ovoz qalbiga muhrlanib qoladi. Bu ovoz oddiy kuy emas – u his, u dard, u izzitirob, u umid. Aynan shunday taʼsir kuchiga ega sanʼatkorlar kamdan-kam tugʻiladi. Qozogʻistonlik dunyoga mashhur xonanda Dimash Qudaybergen ana shunday noyob hodisalardan biridir.

U sahnaga chiqqan zahoti, tomoshabin shunchaki qoʻshiq tinglamaydi – u butun bir hissiy sayohatga chiqadi. Har bir nota, har bir ohang ichida yashirin bir hikoya bor. Va bu hikoyani tushunish uchun til bilish shart emas – yurak yetarli.

Bolalikdan boshlangan yoʻl

Dimashning hayoti tasodiflar yigʻindisi emas, balki muqarrarlik kabi tuyuladi. U sanʼatkorlar oilasida tugʻildi, goʻyo taqdir uni sahna uchun yaratgandek. Uning ota-onasi – professional qoʻshiqchilar – farzandidagi isteʼdodni juda erta sezishdi.

Lekin isteʼdodning oʻzi yetarli emas. Har qanday olmos sayqal talab qiladi. Dimash ham bolaligidan tinimsiz mashgʻulotlar, musiqa maktablari, akademik taʼlim orqali oʻz ovozinu shakllantirdi. U faqat qoʻshiq aytishni emas, balki ovozni his qilishni, uni boshqarishni, uni sanʼat darajasiga olib chiqishni oʻrgandi.

Uning ovoz diapazoni haqida gap ketganda, koʻpchilik hayratda qoladi. Ammo asl moʻjiza diapazonning kengligida emas – uni qanday ishlata olishidadir. Dimash ovoz bilan “oʻynaydi”, uni ranglarga boʻyaydi hamda hisga aylantiradi.

Sahnaga chiqish

Oddiy qoʻshiqchi sahnaga chiqib, qoʻshiq aytadi. Dimash esa sahnaga chiqib, suhbat boshlaydi. Bu suhbat tinglovchi bilan, uning ichki dunyosi bilan, baʼzan esa uning ogʻriqlari bilan boʻladi.

Ayniqsa, uning “S.O.S d’un terrien en détresse” qoʻshigʻini ijro etganini eshitgan inson buni yaxshi tushunadi. Bu qoʻshiq shunchaki texnik imkoniyatlarni namoyish etish emas. Bu – inson qalbining qichqirigʻi. Va Dimash bu qichqiriqni nafaqat eshittiradi, balki his qildiradi.

U sahnada turib, goʻyo tomoshabinning ichidagi jim-jit ovozni uygʻotadi. Shu sababli uning muxlislari dunyoning turli burchaklarida boʻlsa-da, bir-birini tushunadi – ularni birlashtirgan narsa til emas, hisdir.



**Uning ovozi
geografiyaga
boʻysunmaydigan
hodisa**


Burilish nuqtasi

Har bir san'atkor hayotida burilish nuqtasi bo'ladi. Dimash uchun bu Xitoydagi "The Singer" loyihasi bo'ldi.

Bu sahna unga nafaqat mashhurlik olib keldi, balki uning kimligini butun dunyoga ko'rsatdi. U bu yerda faqat g'oliblik uchun kurashmadi. U o'z san'atini namoyish etdi. Va eng muhimi, o'ziga xos bo'lishdan qo'rqmadi.

Dimashning chiqishlari tomoshabinlar uchun kutilmagan hodisaga aylandi. Chunki u odatiy estrada qoliplariga sig'mas edi. U klassika bilan popni, opera bilan zamonaviy ohanglarni uyg'unlashtirdi.

Bu esa uni oddiy ijrochidan ko'ra kattaroq tushunchaga – fenomen darajasiga olib chiqdi.



Konsertlarida odamlar yig'laydi, kuladi, sukut saqlaydi

Chegaralarni buzgan ovoz

Bugungi dunyoda san'at ko'pincha bozor talablariga moslashadi. Ko'p qo'shiqlar tez unutiladi, ko'p ijrochilar esa vaqtinchalik mashhurlikka erishadi. O'zimizning eng telba-teskari so'zlar qorishig'idan iborat, musiqasi o'g'irlangan yoki bosh og'ritar darajada behuzur shovqindan iborat bo'lgan "durdona"larni eslash kifoya.

Dimash esa bu oqimdan butunlay boshqacha yo'lni tanladi.

U o'z ijodida milliylikni ham, universallikni ham saqlab qoldi. U qozoq tilida kuylaydi, lekin uni fransuz ham, xitoylik ham, o'zbek ham tushunadi. Chunki u tovush orqali hisni yetkazadi.

Uning ovozi geografiyaga bo'ysunmaydigan hodisa.

Tafakkurli san'atkor

Dimashni faqat ovoz orqali tushuntirish uni yarim tushunishdir. Ha, uning diapazoni noyob. Ha, u texnik jihatdan mukammal. Ammo bu – yuzaki qatlam. Asl savol boshqa: nega u tinglovchiga ta'sir qiladi?

Chunki u kuylayotgan narsasini tushunadi. U matnni his qiladi. U har bir qo'shiqni "yashaydi".

Bu esa bejiz emas.

Dimash haqida aytiladigan muhim jihatlardan biri – u kitob o'qiydi. U adabiyotga befarq emas. Turli intervyularida u san'atkor uchun tafakkur muhimligini ta'kidlaydi. Klassik musiqa bilan bir qatorda, u ma'naviy va badiiy o'sishga ham e'tibor beradi.

San'atkorning ichki dunyosi qanchalik boy bo'lsa, uning san'ati ham shunchalik chuqur bo'ladi.

Dimash o'z intervyularidan birida shunday degan edi: "Musiqada hech qanday chegaralar bo'lmasligi kerak. San'at barcha millat va madaniyatlarni bir-lashtiradi."

Bu fikr shunchaki shior emas, uning ijodiy dasturidir. U haqiqatan ham janrlarni inkor etadi. Opera va pop, etno va zamonaviy ohanglar – uning sahnasida bu qarama-qarshilik emas, balki uyg'unlikdir. Bu yondashuv esa tafakkur mahsuli.



Mukammallikka intilish falsafasi

Dimashning muvaffaqiyati ortida yashiringan eng katta sir – mehnat. U o'z intervyularida ko'p bor takrorlaydi: iste'dod bu – faqat boshlanish.

San'at har kuni o'z ustingda ishlash, har kuni kechagi o'zingdan yaxshiroq bo'lish degani.

Bu fikr ayniqsa yoshlar uchun muhim. Chunki bugungi tezkor dunyoda ko'pchilik natijani tez kutadi. Dimash esa aksincha yo'lni ko'rsatadi – sabr, intizom va sadoqat yo'lini.

Tinglovchi qalbiga yo'l

Dimashni tinglayotgan inson ko'pincha bir savolga duch keladi: nega bu ovoz bunchalik ta'sir qiladi?

Buning javobi oddiy emas.

Bu – texnika emas. Bu – reklama emas. Bu – chin dildan kuylash. U har bir qo'shiqni yashaydi, his qiladi va aynan shu samimiyat tinglovchiga o'tadi. Shu sababli uning konsertlarida odamlar yig'laydi, kuladi, sukut saqlaydi. Bu oddiy konsert emas – bu hissiy tajriba.

Zamonaviy qahramon timsoli

Bugungi yoshlar ko'pincha o'ziga ideal qidiradi. Kimga ergashishni, kimdan ilhom olishni bilmaydi.

Dimash bu borada ham o'ziga xos obraz yaratdi. U shov-shuvli skandallar bilan emas, balki mehnati bilan tanildi. U kamtar, lekin qat'iy. U zamonaviy, lekin ildizlariga sodiq.

Bu esa uni shunchaki qo'shiqchi emas, balki rol modelga aylantiradi.

Dimash Qudaybergen fenomeni bu – faqat musiqa haqida emas. Bu inson imkoniyatlari haqida. Bu shuni ko'rsatadiki, agar inson o'z yo'lini topsa va unga sodiq qolsa, chegaralarni buzishi mumkin.

Dimashning ovozi esa bizga bir narsani eslatadi: ba'zan so'zlar yetarli emas. Ba'zan yurak gapirishi kerak. Ana shunda san'at tug'iladi!

**Bazan
yurak
gapirishi
kerak!**

**Aleksandr
POP:**

“BOSHOALAR xohlayotgan narsa...”

Xato qilish — insonga xos, kechirish esa ilohiy fazilat.

Kinoyali soʻz oʻyini — hazilning eng quyi shakli.

Jahllanish boshqalarning xatolari uchun oʻzimizdan qasos olishdir.

Hech narsani kutmaydigan odam baxtlidir. Chunki hech qachon uning hafsalasi pir boʻlmaydi.

Orzusi va tashvishi otasidan qolgan ozgina yer bilan cheklanadigan, oʻz tuprogʻida oʻz yurtining havosidan mamnun yashaydigan odam baxtli odamd.

Och qolgan hakamlar hukmga tez imzo chekishadi, jabrlanuvchilar esa ularning qorni toʻq boʻlmagani uchun oʻlib ketadi.

Kibr — ahmoqlarning hech qachon tark etmaydigan illati.

Yolgʻon nima oʻzi? U shunchaki niqob kiygan haqiqat, xolos.

Yozishdagi haqiqiy yengillik tasodifdan emas, mahoratdan keladi — xuddi raqsni oʻrgangan odamning harakati yengil boʻlgani kabi.

Agar iloji boʻlsa, mansab va boylikka sharaf bilan erish; boʻlmasa, har qanday yoʻl bilan boʻlsa ham boylik va mansabni qoʻlga kirit.

Sharaf ham, uyat ham insonning mavqeidan kelmaydi. Oʻz rolingni yaxshi ijro et — haqiqiy sharaf ana shunda.

Baʼzi odamlar hech qachon biror narsani oʻrganmaydi. Sababi ular hamma narsani juda erta “tushunib oldim” deb oʻylaydi.



* * *

Odam o'zining xato qilganini tan olishdan uyalmasligi kerak. Bu shunchaki "men bugun kechagidan dono bo'ldim" degani.

* * *

Nazariyalar bilan to'ldirilgan san'at asari ustida narx yorlig'i unutilib qoldirilgan buyumga o'xshaydi.

* * *

Ahmoqlar farishtalar qadam bosishga qo'rqadigan joyga yugurib kiradi.

* * *

Biz ko'rayotgan narsa butunning faqat bir parchasi, xolos.

* * *

Bir xil ambitsiya odamni ham qutqarishi, ham halokatga olib borishi mumkin; u odamni vatanparvar ham, firibgar ham qiladi.

* * *


Noloyiq maqtov — niqoblangan satira.

* * *

Insonni boshqaradigan ehtiros nima bo'lishidan qat'i nazar, oxir-oqibat baribir aqlni yengadi.

* * *

So'zlarda ham, modada ham bir qoida ishlaydi: haddan tashqari yangi narsa ham, haddan tashqari eski narsa ham g'alati ko'rinadi.



* * *

Yangisini birinchi bo'lib sinab ko'radigan ham bo'lma, eskisini tashlab yuboradigan oxirgi odam ham bo'lma.

* * *

Hech bir ayol uni sevib qolgan erkakdan nafratlanmaydi. Lekin ko'p ayollar faqat "do'st" bo'lib qolgan erkakdan nafratlanadi.

* * *

Kitobga ko'milgan tentak — tushunmay o'qigan holda boshini "keraksiz ilmiy yuk" bilan to'ldirib yuradi.

* * *

San'at shu qadar kengki, inson aqli esa shunga teskari darajada tor.

* * *

Ozgina bilim — xayfli narsa; yoki chuqur ich, yoki umuman bu buloqdan tatib ham ko'rma.

* * *

Menga shunday o'rgatki, go'yo hech nima o'rgatmayotgandek bo'l; yangi narsalarni esa go'yo allaqachon unutilgan narsadek taqdim et.

* * *

Dunyodagi eng kuchli oynak odamning o'zini ko'rganda ishlaydigan o'z ko'zlaridir.

* * *

Biz ko'pincha boshqalarni maqtash orqali aslida o'zimizni maqtaymiz, deb o'ylayman.

Hech qachon orangizda
yo'qlardan ayb
qidirmang.

Atrofimizda juda katta mayda-chuydalar uyumi yetibdi.

Aqlli odam ahmoqlar orasida ham, ahmoq odam aqllilar orasida ham o'z o'rnini topib ketadi.

Eng ishonchli odamlar ko'pincha eng ishonuvchan ham bo'ladi.

Hayot dengizida har xil yo'nalishda suzamiz: aql bizni boshqaradi, lekin ehtiros shamol kabi xalal beradi.

Boshqalar ezilganda quvonma, boshqalar baxtli bo'lganda tushkunlikka tushma.

Ko'p odamlar yashashga shunchalik berilib ketadiki, aslida "yashash ishtiyoqi"dan o'lib ketadi.

Sevishish paytida odamlar orzu qiladi, lekin nikohda uyg'onadi.

Xudoni tushunishga urinishga shoshilma; insonni o'rganish insoniyatning eng to'g'ri mashg'uloti.

Odamlar farishta bo'lishni xohlaydi, farishtalar esa xudo bo'lishni orzu qiladi.

Yumshoq tanbeh yetarli bo'lgan joyda qattiq "haqiqat" ko'proq zarar keltiradi

Qanday qilib gunohni yo'q qilaman-u, lekin tuyg'uni saqlab qolaman? Qanday qilib gunohni yomon ko'rib, gunohkorni sevaman?

Shayton endi arvalgidan aqlliroq — u odamni boylik bilan vasvasaga soladi, kambag'allik bilan emas.

Insonning harakati har doim uning asl kimligini ko'rsatmaydi; ba'zan yaxshilik qilgan odamning o'zi yaxshi bo'lmaydi.

Agar kimnidir obro'sizlantirish kerak bo'lsa, eng qulayi qarindoshlardir.

O'zimiz kuzatgan narsaga nisbatan boshqalarning fikriga ko'proq moyil bo'lamiz.

Donolar qanchalik shubhakor va ehtiyotkor bo'lishga moyil.

Tarix do'stlarga qaraganda, itlarning sadoqatiga oid misollar bilan ko'proq to'la.

Bilimli odam tabiatni o'rganib baxtli, johil esa bilmaslikdan ham baxtli.

Eng yomon telba avval avliyo bo'lgan, keyin aqldan ozgan odamdir.

Haqiqiy odob o'zingni erkin tutish va atrofingdagilarni ham imkon qadar erkin his qildirishdir.

Ahmoqlar qoyil qoladi, aqlli odamlar esa ma'qullaydi.

Doktorlar kelisha olmaganida va eng dono huquqshunoslar ham shubhada bo'lsa, sen va mening hukm o'qishga haqqimiz bormi?

Tabiatdagi haddan tashqari holatlar ko'pincha bir xil natijaga olib keladi; insonda esa ular qandaydir sirli maqsadga xizmat qiladi.

Ba'zi keksa odamlar doim yoshligini maqtaydi. Go'yo u davrda hech qanday ahmoq bo'lmagan, lekin tasodifan o'zlari tirik qolib, "misol" bo'lib qolgan.

Soddalik ichida bir ulug'vorlik bor, u o'tkir hazilning barcha nozikliklaridan ancha baland turadi.

Kim mukammal asar ko'rishni kutsa, hech qachon bo'lmagan, yo'q va bo'lmaydigan narsani kutadi.

Orqaga qaytmaslik allaqachon biroz oldinga siljishdir; odamlar avval yurishni o'rganadi, keyin raqsga tushadi.


Ayol tabiatan doim ichki qarama-qarshilikda yashaydi. Xotira va fikrlash bir-biriga juda yaqin; his va fikr orasidagi chegara juda nozik.

Fazilat ko'pincha og'ir, mashaqqatli ishdek tuyuladi, shuning uchun u doim "odob-axloq" chegarasida yashashni afzal ko'radi.

Bizning ehtiroslarimiz tutqanoq kabi: ular vaqtincha kuch beradi, lekin oxir-oqibat bizni yanada zaiflashtiradi.

Hikoya qancha og'izdan o'tsa, shuncha o'zgaradi, har bir eshitgan odam unga o'zidan narsa qo'shadi.

Daho yaratadi, did esa uni saqlaydi. Did — dahoning sog'lom aqli; didsiz daho esa faqat ulug' ko'rinadigan telbadir.



Sog'liq deb ataydiganimiz, doimiy parhez xavotiri bilan sotib olinadigan bo'lsa, zerikarli kasallikdan uncha farq qilmaydi.

O'zingga ortiqcha ishonma, balki o'z kamchiliklaringni tanishni o'rgan; buning uchun do'st va dushmandan ham foydalan.

Odamlar orasidagi ishlarni haddan tashqari kuzatishga berilib ketgan kishi, xuddi asalari mehnatini juda sinchkovlik bilan kuzatgan odam kabi zaharli nishlarga nishon bo'ladi.


Men odamlar orasidagi partiyaviy bo'linishlar tugashini orzu qilaman, chunki bu oxir-oqibat bir necha odam foydasi uchun ko'pchilikning aqlidan ozishidir.

Inson hech qachon o'zini baxtli deb bilmaydi, to boshqalar xohlayotgan narsaga ega bo'lmaguncha.

Hech qachon biror erkak ayol kabi dadil yolg'on gapira olmaydi.

OGIRMO'ZLIK


“shou” si



Taomlanish shoxobchasi oldida uzun navbat, odamlar nimanidir qiziqish bilan kuzatib turishibdi. Stol atrofida esa kimdir bir daqiqada besh hissa oshni yeyishga harakat qilmoqda.

Oldida vaqt o'lchovchi soat, atrofdagilar esa hayajon bilan olqishlaydi. "Agar shuni yeb bitirsang, bepull!", – deydi tadbir tashkilotchisi. Boshqa bir joyda esa "15 ta burgerni yegan odamga katta sovg'a!" degan e'lon osilgan. Bu kinodan bir parcha emas, aksincha bugun hayotimizda ro'y berayotgan va biz oddiy qabul qilayotgan holatlardan biri. Shu o'rinda bir savol paydo bo'ladi: "Agar ovqat iste'mol qilish faqat energiya olish yoki lazzatlanishdan ko'ra mukofot sifatida o'tkazilsa, bu bizning madaniyatimizga qanchalik mos keladi?"

Bugungi kunda ko'plab restoran va ovqatlanish tarmoqlari "kim ko'proq yesa – g'olib" tamoyili asosida turli aksiyalar o'tkazmoqda. Bular oddiy marketing harakati emas, balki iste'mol madaniyatining tubdan o'zgarayotganidan darak beradi. Oziq-ovqat iste'moli odam hayoti uchun zarur ehtiyoj bo'lishi bilan birga, madaniyatning ham ajralmas qismidir. Lekin uni "shou"ga aylantirish, haddan tashqari iste'molni rag'batlantirish va isrofgarchilikka sabab bo'lish qanchalik to'g'ri?



Ushbu aksiyalar nafaqat sog'liq uchun xavfli, balki axloqiy va iqtisodiy jihatdan ham bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Bir tomonda kimdir mukofot evaziga ovqatni zo'rlab yeyotgan bo'lsa, boshqa bir joyda millionlab odamlar ochlikdan qiynalmoqda. Bir tomonda ovqat isrof bo'layotgan bo'lsa, boshqa tomonda resurslar yetishmovchiligi kuchayib bormoqda.

Ovqatlanish – tomosha emas, madaniyat! Shu bois, bunday aksiyalarga ko'z yumib qarash, ularni shunchaki qiziqarli o'yin deb baholash emas, balki ularning oqibatlarini haqida jiddiy o'ylab ko'rish va iste'mol madaniyatimizni qayta ko'rib chiqish lozim, deb hisoblayman!

Yuqoridagi gaplarimga isbot sifatida ijtimoiy tarmoqda ommalashgan "ovqatlanish shou"larini tahlil qilib ko'ramiz. Ijtimoiy tarmoqda "Falon Piston" nomi bilan faoliyat yuritayotgan ovqatlanish shoxobchasi "1 metrli shashlik" aksiyasini yo'lga qo'ygan. Aksiyada g'olib bo'lish uchun uzunligi 1 metr bo'lgan shashlik, non va salatni 10 daqiqada yeb tugatishingiz kerak. G'olibga 300 ming so'm pul mukofoti va yegan ovqati tekin qilib qo'yilgan. Osh xalqimizning eng sevimli taomi ekani hech kimga sir emas. Biz uni asosan bayramlarda, mehmon kelganda va oila davrasida iste'mol qilamiz. Ming yillik an'ana va milliy taomimiz sifatida qadrlanib kelayotgan bu taom doirasida ham aksiyalar tashkillashtirilgan. "Falonchi osh" nomi bilan faoliyat olib boruvchi osh markazi "103 dollarlik osh" aksiyasini yo'lga

qo'ygan. G'olib bo'lish uchun to'rt kishi 1 soat davomida oshni yeb tugatishi kerak. Yutqazganlar taomning pulini to'laydi, g'olibga esa 200 AQSh dollari mukofot sifatida beriladi. Yoxud "Pistonchi" ovqatlanish shoxobchasi ham 15 ta gamburgerni 10 daqiqada yeb tugatish uchun 200 AQSH dollari mukofotini e'lon qilgan. Yana bir aksiya vodiy yo'lida faoliyat yuritadigan quritilgan mahsulot sotuvchilari tomonidan yo'lga qo'yilgan. Uning shartlariga ko'ra, siz katta qurtini 1 daqiqada yutib berishingiz kerak. Bekorga yutib berish iborasini ishlatmadim, chunki oddiy holatda uni 1 daqiqada yeb tugatishning imkoni yo'q. Aksiya shartlariga muvofiq g'olib agar suv bilan iste'mol qilsa 200 ming so'm, agar suvsiz iste'mol qilsa 100 AQSH dollarini qo'lga kiritadi. Bu kabi aksiyalardan yuzlab misol keltirish mumkin. Eng achinarlisi, ishtirokchilar shu qadar ko'pki, ochlik kelib qoldimikin deb o'ylab qolasan kishi?! Hatto ana shu aksiyada ishtirok etayotganlar ichida yosh bolalar ham bor.

**So'nggi 30 yilda
ortiqcha vazn
avj oldi**

Bu kabi holatlar davom etar ekan, biz ularning kuzatuvchisi bo'lib qolaveramizmi? Yoxud o'zimiz ham kun kelib uning ishti-rokchisiga aylanamizmi?

“The Guardian” nashrining ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga kelib butun dunyo bo'ylab o'rta yoshlilarning yarmidan ko'pi ortiqcha vazndan aziyat chekishi mumkin. Bu hozirgi kunda har uch o'smirning biri ortiqcha vazn bilan yashayotganiga asoslanadi. Ortiqcha vazn muammosi erda o'lim, turli kasalliklarning erda vujudga kelishiga sabab bo'lgan holda sog'liqni saqlash sohasida jiddiy xavflarni tug'dirishi mumkin. “Lancet” nashri taqdim etgan tahlillarga ko'ra, so'nggi 30 yilda ko'plab faktorlar sabab insonlarda ortiqcha vazn muammosi avj oldi. Ana shu faktorlar ichida noto'g'ri ovqatlanish va noto'g'ri ratsion ham kiritilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirda 2,11 milliard 25 va undan katta yoshdagilar hamda 493 million 5 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan aholi ortiqcha vaznga ega. Bu 1990-yildagi ko'rsatkichlardan mos ravishda 731 million va 198 millionga ko'proqdir.

Taxminiy prognozlariga ko'ra, 2050-yilga kelib, 25 yoshdan kattalarning yarmidan ko'pi (3,8 milliard) va 24 yoshgacha bo'lgan 746 million kishi ortiqcha vazn yig'ishi mumkin.

Kasallik avjlanishiga “ovqat aksiyasi” sabab bo'lmayaptimi?

Ortiqcha vaznning misli ko'ril-magan global epidemiyasi chuqur fojia va monumental ijtimoiy muvaffaqiyatsizlikdir, deydi Vashington universiteti professori Emmanuela Gakidou. Tadqiqotchilar kelajakda bolalarda o'zlarining ajdodlariga qaraganda tez-roq vazn ortishini, diabet, yuqori qon bosimi, yurak xastaliklari va saraton kasalliklari nisbatan erda vujudga kelishini ta'kidlab o'tdi. Masalan, yuqori daromadli mamlakatlarda 1960-yillarda tug'ilgan erkaklarning 7 foizi 25 yoshga yetgunga qadar semizlikka chalingan. Bu ko'rsatkich 1990-yillarda tug'ilganlarda 16 foizga, 2015-yilda tug'ilganlarda esa 25 foizga yetishi taxmin qilinmoqda. Ortiqcha vazn muammosi mamlakatlar iqtisodiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. “World Obesity Federation”ning tahliliga ko'ra, bu kam daromadli davlatlar uchun jiddiy xavf hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ortiqcha vazn va semizlik muammosi tobora jiddiylashib bormoqda. Aholining 56 foizida ortiqcha vazn mavjud bo'lib, bu yurak qon-tomir kasalliklari va boshqa surunkali kasalliklar xavfini oshiradi. Ovqatlanish aksiyalari davom etaversa, insonlar ovqatni ehtiyoj uchun yetarli darajada emas, aksincha majburiy tarzda iste'mol qilsa, yuqoridagi kabi kasallik kelib chiqasmikini? Bundan tashqari, oshqozon-ichak kasalliklari ham bugungi kunda avjiga





chiqqan. Tez ovqat iste'mol qilish natijasida oshqozon oziq-ovqatni to'liq hazm qilishga ulgurmaydi, bu esa ichakda gaz to'planishiga va oshqozon qattiqlashishiga olib kelishi mumkin. Bular esa oshqozonning ortiqcha ishlashiga va ovqatni yaxshi hazm qilish qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladi. Yarim tayyor mahsulotlar va noto'g'ri ovqatlanish natijasida kelib chiqadigan ushbu kasallikning avj olishiga "ovqat aksiyasi" sabab bo'lmayotganmikin?

Aksiyalarda taklif etilayotgan ovqatlar, ko'pincha tez tayyorlanadigan va ko'proq kaloriyali mahsulotlar bo'ladi. Bu taomlarning tarkibida zararli moddalar va ortiqcha shakar, tuz yoki trans-yog'lar mavjud bo'lishi mumkin. Buning oqibatida kelib chiqadigan qator kasalliklar bor.

Kardio-vaszulyar kasalliklar: trans-yog'lar va ortiqcha tuzning yuqori miqdori yurak va qon-tomir kasalliklarining rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bular qon bosimining oshishiga, ateroskleroz va boshqa yurak kasalliklariga olib keladi.

Qandli diabet: oziq-ovqatda ko'p shakar va noorganik tarkib bo'lishi qondagi insulin darajasining o'sishiga olib keladi va bu uzoq muddatda qandli diabet kasalligiga sabab bo'lishi mumkin.

Oziq-ovqatga nisbatan noto'g'ri munosabat va "ko'proq yeyish"ga bo'lgan turtki nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday aksiyalar ko'pincha odamlarni shaxsiy chegaralarini buzishga undaydi va ularni ortiqcha ovqatlanishga majbur qiladi. Bunday tadbirlar odamlarni ichki ehtiyojlarini eslatib, "ko'proq yeyish"ga undaydi. Bu psixologik jihatdan zararli bo'lib, odamlar o'zining to'yish hissini unutib, ovqatni "yutib olish"ga o'rganishadi. Oziq-ovqat bilan aloqaning buzilishi: bunday aksiyalar, odamlarning oziq-ovqatni faqatgina lazzat olish yoki mukofot olish vositasi sifatida ko'rishiga olib kelishi mumkin. Bu esa sog'lom ovqatlanish odatlarini yo'qotishga, hatto ovqat bilan psixologik bog'lanishning buzilishiga sabab bo'ladi.



Oorinning uchdan
bir qismi nafas
olish uchun

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bunday aksiyalar, ko'proq mijoz jalb qilish uchun foydali bo'lishi mumkin, lekin ularning inson salomatligiga ta'siri jiddiy hisoblanadi. Tez-tez va me'yorsiz ovqatlanish, isrofgarchilik, zararli moddalar bilan to'la mahsulotlar va psixologik ta'sirlar sog'liq uchun katta xavf tug'diradi. Shuning uchun, bizga kerak bo'lgan narsa shunchaki ovqatlanish, ya'ni sog'lom va ma'naviy ovqatlanish madaniyatini yaratishdir. Bu esa faqatgina marketing aksiyalari orqali emas, balki jamiyatning keng miqyosida sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Islom dinida insonning faqat ruhiga emas, balki, jismiga ham ehtirom berilgan. Tirik jon borki taomga ehtiyoji bor. Shu jumladan insonning ham. Inson ruhiyati iymon, amal, ilm va kitobxonlik bilan oziqlansa, uning jismi taom va halol ichimliklardan oziqlanadi. Taomlanishda isrofga yo'l qo'ymaslik kerak. Barcha narsalardagi kabi yeb-ichishda ham Islom mo'tadillikni tavsiya etadi. Islom dinining ovqatlanish qoidalariga ko'ra, ovqatlanganda tomog'iga tiqilguncha yemaslik kerak. Zero, qorin qancha to'q bo'lsa odamni dangasalik tutadi, xoh ibodatda, xoh riyoatda. Qorin uch qism: bir qismi ovqat uchun, bir qismi suyuqlik uchun, yana bir qismi nafas uchun bo'lmog'i kerak deb keltirilgan.



Islom ovqatlanish jarayonida isrofgarchilikka yo'l qo'yishni qoralaydi. Qur'on va hadislarda isrof qilish harom ekanligi ta'kidlangan. Aksiyalar orqali qilinayotgan targ'ibotlar odamlarni o'z salomatliklariga e'tibor bermay, ortiqcha ovqatlanishga va resurslarni behuda sarflashga olib keladi. Bu esa islomning asosiy talablariga zid bo'lib, insonning ruhiy va ma'naviy holatini zaiflashtiradi. Aksiyalar orqali ovqatni ko'p iste'mol qilish, isrofgarchilikni rag'batlantiradi. Bu jarayon faqat jismoniy ehtiyojni qondirishdan tashqari, jamoaviy va ijtimoiy salomatlik buzilishiga ham olib keladi.

Islom dinida ovqatlanish faqat ehtiyoj emas, balki Allohning ne'matlaridan biri sifatida qaraladi. Ovqat iste'mol qilishda har bir musulmon Allohga shukr qilish, ne'matlarni qadrlash va mazmunli niyat bilan ovqatlanishi kerak. Aksiyalar esa ko'pincha insonlarni ovqatni shunchaki "maslahat va foyda" uchun iste'mol qilishga undaydi, bu esa islomning ma'naviy talablariga qarshi keladi. Hadisa Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: "Kim ovqatni yesa, Allohga shukr qilsin". (Buxoriy) Shukr qilish, ovqatni ta'minlovchi ne'matlarni e'tirof etish va muomala qilish islomda muhim bo'lsa, aksiyalar bu jihatni chetlab o'tib, odamlarni faqat tashqi foyda, ya'ni mukofot olishga undaydi. Ovqat yeyish



Oldiga kelganni yemak - hayvonning ishi

musobaqasida g'olib bo'lmagan odam esa taom uchun shukr qilishi yoxud yaxshi kayfiyatda bo'lishi aqlbovar qilmas holatdir. Dinimiz nuqtai nazaridan olib qarasaq, ovqatlanishning maqsadi nafaqat jismoniy ehtiyojni qondirish, balki ma'naviy yuksalish va Allohning ne'matiga shukr qilish, boshqalar bilan bo'lishish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashdir. Aksiyalar esa bu maqsadlarni inobatga olmay, faqat shaxsiy foyda va raqobatni rag'batlantiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, amaldagi O'zbekiston Respublikasi "Reklama" to'g'risidagi qonunning 16-moddasida reklamaga qo'yiladigan talablardan biri: qonunchilikning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, fuqarolarning hayotiga yoki sog'lig'iga va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi yoxud zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, shuningdek, xavfsizlik vositalariga e'tiborsiz bo'lishga undovchi harakatlarga da'vat qilish; narxlarni (tariflarni) chet el valyutasida ko'rsatish; milliy va oilaviy an'analarga, shuningdek axloq va ma'naviyatning umum qabul qilingan normalariga zid bo'lgan shakllar, iboralar va obrazlardan foydalanish ta'qiqlanadi. Shu o'rinda savol tug'iladi: Agar mana shu vaziyatda yuqoridagi kabi «o'yin»

Bizning eng katta muammo – taomlanish

jarayonida mijoz yoki ishtirokchini sog'ligi yomonlashib qolsa unga kim javobgar hisoblanadi? Qaysidir ma'noda bu ixtiyoriy tanlov deb aytishingiz mumkin. Ammo mana shunday jarayonni tashkil etuvchi shaxs, muassasa yoki tashkilot birinchi navbatda javobgar hisoblanadi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, bugun globallashayotgan axborot asrida butun dunyo miqyosida ilm-fan jadalik bilan rivojlanmoqda, texnologik jarayonlar, tibbiyot sohasiga, avtomobilsozlik shu darajada rivojlanyaptiki, bugungi yaratilgan ixtiro yoki yangiliklar ertaga dolzarbligini yo'qotmoqda. Shu o'rinda yurtimizda ham bu borada sezilarli darajada islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo bugun bizning ijtimoiy mediani kuzatuvchi har bir shaxs bizning eng katta muammo taomlanish bo'lsa kerak, deb o'ylaydi. Farzand tug'lsa mahallaga osh beriladi, kimdir vafot etsa osh, muvaffaqiyatga erishsa ham, to'y qilsa ham, o'qishga kirsam ham, armiyaga borib kelasa ham, sigiri tug'sa ham va h.k. Avvalo ovqatlanish madaniyatiga rioya qilishimiz har birimizning burchimiz hisoblanishi kerak. Hazrat Alisher Navoiy aytmishlarki:

Og'ziga kelganni demak – nodonning ishi.

Oldiga kelganni yemak – hayvonning ishi.

Yulduz ABDULLAYEVA



CHIQTINDILAR BIRINGIZMI

OLIB KETING!

Dam olish kuni do'stlarim bilan toqqa sayohat qilishni rejalashtirdik. Erta tongda tog' tomon yo'l oldik. Vaqtli chiqishimizga qaramay manzilga tirbandlik sabab ancha kech yetib bordik. Tabiat qo'yni, yam-yashil o'tloqda dam olayotganlar orasida oilaviy, do'stlar va yaqinlari bilan chiqqanlar judayam ko'p. Biz ham piknik qilish uchun kenglikka chiqishga shoshildik. Tepaga qarab yurar ekanman kayfiyatim buzilib, o'zimni qo'yarga joy topa olmadim. Atrofda sochilib yotgan chiqindilar kayfiyatimga shu qadar ta'sir qildiki, birdan u yerni tezroq tark etishni xohlab qoldim. Eng achinarlisi chiqindilar orasida yegulik, qog'oz va selofan paketlar, shisha va plastik idish, hattoki bolalar tagligi ham bor edi. Nahotki insonlar shu qadar farosatdan yiroqlashgan bo'lishsa?! Odamlar o'zlari rohatlanib, boshqalarning dam olish uchun imkon qoldirishmagan. Biz ana shunday o'y-xayollar bilan bir soatga yaqin chiqindidan xoli bo'lgan joy qidirdik. Afsuski, yerning har joyida chiqindi idishlari sochilib yotardi va bu insonning g'ashini keltirardi. Meni qiynagan savol shu bo'ldi: "Chiqindini olib ketish tabiatni tozalaydimi yoki vijdonni?"



Ona paketni yerga tashlansa, bola buni to'g'ri qabul qiladi




Bugun tog'lar, soy, yashil yaylovlar odamlar uchun go'yoki shaxsiy hordiq manziliga aylangan. Tabiat qo'yniga chiqish, piknik uyushtirish – bu yoqimli mashg'ulot. Ammo undan keyingi jarayon jamiyatning madaniy

darajasini belgilaydi. Afsuski, ba'zilar uchun hozirda o'zidan keyin axlat qoldirib ketish odatga aylandi. Aslida bu odat emas – xastalik. Men buni tabiatga nisbatan beparvolik kasalligi deb hisoblayman. "Piknik madaniyati" degan ibora urfga aylandi. Ammo amaliyotda bu iboraning o'zi paradoksga aylangan. Odamlar dam olish maskanlariga olib kelgan ovqatini yeydi, bir martalik idishlarni ishlatadi, keyin esa o'sha chiqindilarni yig'ish o'rniga, atrof-muhitga tashlab ketadi. Plastmassa idishlar, paketlar, qog'ozlar, hatto o't yoqilgan joylar va kuygan daraxt shoxlari – bu tog' safaridan "esdalik" sifatida qolayotgan izlardir. Endi tasavvur qilib ko'ring, "sizning hovlingizga kimdir kelib ovqat yeydi, dam oladi va keyin hamma chiqindisini o'sha yerda tashlab ketadi. Bu holat sizga yoqadimi?" Tabiat ham sizniki emas, u umumiy mulk. Uni tozalab ketish sizning insoniy burchingiz. Shu o'rinda aytish kerakki, har bir tashlangan plastik idish, sellofan paket, alyuminiy folga yillar davomida yemirilmaydi. Bu chiqindilar tabiat, hayvonot, hatto yer osti suvlari orqali odam organizmiga zarar yetkazadi. Bir dona plastik idish o'rtacha 450 yilgacha yemirilmadan yerda saqlanib qoladi. Zanjir uzilmaydi va biz tabiatga katta zarar beramiz, uning buzilishidan esa o'zimiz ziyon ko'rishda davom etamiz.

Ko'p hollarda ota-onalar bolalari bilan birga tabiat qo'ynida dam olayotganiga guvoh bo'ldim. Ammo bola axlatni qayerga tashlashni bilmaydi – u ota-onasining harakatini kuzatadi. Otasi sigaret qutisini soyga otadi – bola ham buni odatiy hol deb qabul qiladi. Onasi paketni yerga tashlab ketadi – bola ham shunday qilsa bo'lar-

kan, deb bu ishni to'g'ri qabul qiladi. Agar vaziyat shunday davom etsa, yaqin yillar ichida yashil hudud-dan asar ham qolmaydi. Aytmoq-chimanki, ayrim qadriyatlar oiladan boshlanadi. Oila muhitida farzandlar atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkor bo'lish va uni asrashga o'rgatilsa, ular hech qachon bugungi kundagi vahshiylikni takrorlashmaydi. Chunki, ularda ekomadaniyat shakllanadi va bu orqali ular ijtimoiy mas'uliyatni his qilishadi. Ammo afsuski, bugun ulg'ayotgan yosh avlodda tabiatga nisbatan shafqatsiz munosabat shakllanayotganiga guvoh bo'lyapmiz.

Shu o'rinda sayohat va dam olishda, xorij tajribasiga tayana-digan bo'lsak, Yaponiyada tabiat qo'yniga sayohat qilish va oilaviy dam olishga chiqish bu o'zidan keyin chiqindi qoldirmaslik tamoyili bilan uyg'unlashgan. Bu qarash ular uchun majburiyat sanaladi va har bir inson bunga qat'iy amal qiladi. Manbalarda qayd etilishicha, ular chiqindini ko'chaga tashlashni hatto tasavvur ham qilishmaydi. Sababi bu nafaqat qonunbuzarlik, balki jamiyat a'zolari orasida uyatga qolishga sabab bo'ladi. O'zidan keyin yomon iz qoldirmaslik, onga singdirilgan qoida emas, yashash falsafasiga aylangan.



Singapurda esa, o'ziga xos yondashuv mavjud. Bu yerda tabiatga nisbatan yomon munosabatda bo'lish va uni ifloslantirish qimmatga tushadigan xato hisoblanadi. Chunki mamlakatda chiqindini belgilanmagan joyga tashlash va atrofga zarar yetkazish uchun belgilangan jarimalar juda baland. Shu bilan birga, bu ishni qayta takrorlagan insonlar majburiy ravishda atrof muhitni tozalashga jalb qilinadi. Ushbu yondashuv kishiga bir vaqtning o'zida moliyaviy va ijtimoiy javobgarlikni yuklaydi. Natijada esa atrof-muhitning tozaligi ta'minlanadi va barqaror ekologik muhit saqlab qolinadi.



Yevropa mamlakatlarida ham aynan shu mexanizm ishlamoqda. Ular muammoni nazorat, qat'iy jazo choralari, ijtimoiy mas'uliyat va rivojlangan infratuzilma orqali hal qilmoqda. Atrofdagi hech kim bo'lmasligiga qaramay insonlar chiqindini yerga tashlamaydi. Chunki ularda ekologik madaniyat shakllangan. Shu o'rinda savol tug'iladi: "Bizga nima yetishmayapti?" Bu haqda ommaviy axborot vositalari orqali gapirayotgan, qonunchilikda jazo choralari belgilangan va infratuzilma shakllangan bir jarayonda natija juda qoniqarsiz holatda. Nazarimda, asosiy muammo biz hali ham tabiatdagi tozalikni umumiy mas'uliyat emas, kimningdir vazifasi deb bilamiz. Tabiatga chiqib dam olishni o'zimizning huquqimiz deb hisoblaymiz, lekin uni asrashni majburiyat sifatida qabul qilmaymiz.

Tabiat bizga ajdodlardan meros, avlodlarga berishimiz kerak bo'lgan qarzimizdir. Bugun biz uni qanchalik qadrlab toza tutsak, kelgusi avlod oldidagi burchimizni shunchalik yaxshi bajaragan bo'lamiz. Agar tog' safariga chiqishni rejalashtirgan bo'lsangiz, chiqindi uchun maxsus idish olishni va ularni olib ketishni unutmang!

Otabek MUZAFFARZODA



Bizga nima yetishmayapti?



28 MART

- MILLAT MURABBIYI

IBROHIM HAQQUL

TUG'ILGAN KUN!

Domla deydi ki...

Insonni zohiriy go'zallik baribir ko'proq qiziqtirib, botindagi ajoyibotlarni kashf qilishga nisbatan tashqi dunyo go'zalliklari uni ortiqroq sehrlagan. Insoniyatning fikr hayotidagi adashish, xato va nuqsonlarning uzluksiz takrorlanishiga bir sabab ham, ehtimol, mana shudir. Bashariyat olamni bilishda naqadar ilgarilagan bo'lmasin, o'zini anglashda, aytaylik, asrdan asrga ildamlab ketgani yo'q. Mag'oralarda topilgan rasmlarni ko'rgan buyuk musavvir Pikasso "olis zamonlarga qaraganda bugun biz juda ilgarilaganmiz deb aytolmaymiz", degan. Chunki inson san'at usullari yoki texnikasi bilan emas, ruhi bilan chinakam san'at yaratadi. San'atkorlik insonning o'zidagi bir imkoniyatdir. Odamiyluk "san'ati" ham shunday. Asosiy muammo ichkarida hal etilmasa, zohiriy va zohirdan o'tkazilgan eng ijobiy, eng kuchli ta'sirlar ham insonni g'aflat domidan qutqazolmaydi.

E'tiqodning poydevori, albatta, din. Diniy ishonch va tushunchalardan ajralish o'zni ruhoniysizlik ofatiyu dahriylik kulfatlariga mahkum aylash demak. Ayni paytda e'tiqodni diniy va ilohiy mazmun-mohiyat bilan cheklab ham bo'lmaydi. Ishq, Ma'rifat, Haqiqat... – bularni e'tiqoddan ayri holda tasavvur etish mumkinmi? Or-nomus, hayo, g'urur singari bezavol tuyg'ularning muhofizi ham, avvalo, e'tiqoddir. Inson irodasi qancha baquvvat bo'lsa, e'tiqod ham o'shancha kuchga to'ladi. Odamning eng katta dushmani – qo'rquv va tahlika. E'tiqod ana shu g'animni tanish hamda unga qarshi turishga rag'batlantiradi. Umuman, e'tiqodsizlikdan xalos bo'lishning yagona chorasi hayot sinovlaridan o'tgan e'tiqodga suyanish hisoblanadi.

Odamlar hayotini umumiy tarzda ikkiga ajratish mumkin. Birinchisi, tabiiy, ya'ni sodda, to'g'ri, halol, samimiy, ayni paytda bir qadar qiyinchilik, aziyat, anduh va armondan xoli bo'lmagan turmush tarzi. Ko'pchilik doim shunday yashagan. Ikkinchisi, sun'iy, ya'ni aldam-qaldam, yolg'on, aldov va har turli nayrangbozliklarga asoslangan hayot tarzidir. Gapning ochig'ini aytadigan bo'lsak, odamlar oldingi davrdagilarga nisbatan bir-biridan ko'proq cho'chiydigan, bir-biriga inonmaydiganroq bo'lib qolishdi. Nega? Chunki tabiiy hayot tarzi qanaqayu, sun'iy hayot yo'li qanaqa – buni farqlash, bunga munosabat bildirish istagi sezilarli zaylda susaydi.



* * *

*Oq sochlari oppoq tun uning,
Umri halol ishqqa bayroqdir.
Oh, yuzlari dunyoi dunning
Go'zalidan chiroyliroqdir.*

*(Bo'lolmadim hassasichalik),
Otam dardin ko'targan mohim,
Ushoqqina onam ko'ngliga
Bir hovuch nur bergil, ilohim!*

Zebo MIRZO

Rahim Ahmedovning 1956-yilda ishlangan "Ona o'ylari" kartinasi

